Sarbon Universiteti

DAVLAT BOSHQARUVIDA KORRUPSIYAVIY XAVFLARNI ANIQLASH, BAHOLASH VA BOSHQARISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

ZOKIROV SH.Z
YOQUBOV SH.N
AXMEDOVA K.Z

TOSHKENT-2026

ISBN 978-991009845-1

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SARBON UNIVERSITETI

ZOKIROV SHOXRXUBEK ZOHIDJON O'G'LI
YOQUBOV SHERZOD NABI O'G'LI
AXMEDOVA KAMOLA ZOIRJON QIZI

DAVLAT BOSHQARUVIDA KORRUPSIYAVIY XAVFLARNI ANIQLASH, BAHOLASH VA BOSHQARISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

(O'quv-uslubiy qo'llanma)

TOSHKENT-2026

UOʻK: 35.08:343.352
KBK: 67.401.02ya73

Sh.Z., Zokirov, Sh.N., Yoqubov, K.Z., Axmedova
Davlat boshqaruvida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish tizimini rivojlantirish [Matn]: oʻquv-uslubiy qoʻllanma / Sh.Z. Zokirov, Sh.N. Yoqubov, K.Z. Axmedova – T.: Sarbon universiteti, 2026. – 87 b.

Ushbu oʻquv-uslubiy qoʻllanma Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Sarbon universiteti kengashi yigʻilishining 2026-yil 5-mart kunidagi 01/4-son bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Mualliflar:

Sh.Z.Zokirov – Sarbon universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi oʻqituvchisi;

Sh.N.Yoqubov - Sarbon universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi oʻqituvchisi;

K.Z.Axmedova - Sarbon universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi oʻqituvchisi

Mas’ul muharrir:

F.Primov – yu.f.d (DSc), Dotsent, Sarbon universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi mudiri.

Taqrizchilar:

M.Saydazimov – yu.f.f.d (PhD), Sarbon universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.b;

D.Xudoynazarov – y.f.f.d (PhD), Toshkent davlat yuridik universiteti oʻqituvchisi, dotsent

Mazkur oʻquv-uslubiy qoʻllanma davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Unda korrupsiyaviy xavf tushunchasi, uning manbalari, shakllari hamda davlat boshqaruvi institutlariga ta’siri chuqur tahlil qilinadi. Xususan, mavjud qonunchilik, institutsional mexanizmlar va xorijiy davlatlar tajribasi asosida korrupsiyaviy xavflarni erta aniqlash, tizimli baholash va samarali boshqarish uslublari oʻrganiladi.

ISBN: 978-9910-09-845-1

© Sh.Z. Zokirov, Sh.N. Yoqubov, K.Z. Axmedova.
© Sarbon universiteti, 2026.

M U N D A R I J A

KIRISH 6
I BOB. DAVLAT BOSHQARUVIDA KORRUPSIYAVIY XAVFLARNI ANIQLASH, BAHOLASH VA BOSHQARISH TIZIMINING NAZARIY VA TASHKILIY JIHATLARI 8
1.1. Davlat boshqaruvi va korrupsiyaviy xavflar borasidagi asosiy yondashuvlar… 8
1.2. Korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarishning uslublari, mezonlari 19
II BOB. DAVLAT BOSHQARUVIDA KORRUPSIYAVIY XAVFLARNI ANIQLASH, BAHOLASH VA BOSHQARISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO STANDARLAR VA XORIJIY TAJRIBA 28
2.1. Davlat boshqaruvida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish tizimini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar tahlili 28
2.2. Korrupsiyaviy xavflarni baholashga qaratilgan ISO 31000 va 37001 xalqaro standartlar 41
III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BOSHQARUVIDA KORRUPSIYAVIY XAVFLARNI ANIQLASH, OLDINI OLISH VA BOSHQARISH TIZIMINI JORIY QILISH ISTIQBOLLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 51
3.1. Davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirish yo'nalishlari va istiqbollari 51
3.2. Davlat boshqaruvida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish 68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.. 74
ILOVALAR

KIRISH

Hozirgi davrda davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi, ochiqligi va fuqarolar ishonchining mustahkamlanishi bevosita korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarining mustahkamligiga bogʻliq.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida yaxshi natijalarga erishgan davlatlarning tajribasiga e’tibor qaratsak, ularda korrupsiya bilan bogʻliq salbiy holatlarning oqibati bilan emas, balki uni keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni oʻrganish orqali samarali oldini olish mexanizmlarini joriy etish ustuvor maqsadga aylanganligini koʻrish mumkin. Chunki, bugun xalqaro hamjamiyat korrupsiyaga qarshi kurashishning eng toʻgʻri va samarali yoʻli – korrupsiyaning sodir etilishiga imkoniyat yaratayotgan sabab va omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish, deb hisoblaydi[1].

Bugungi kunda korrupsiya nafaqat ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligiga, balki davlat boshqaruvi samaradorligiga ham jiddiy xavf tugʻdirmoqda. Davlat resurslarining noqonuniy talon-taroj qilinishi, manfaatlar toʻqnashuvi, nepotizm, xizmat vakolatlarining suiiste’mol qilinishi kabi korrupsion holatlar davlat tuzilmalarining samarali faoliyat yuritishiga toʻsiq boʻlmoqda. Shu boisdan, davlat boshqaruvida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish tizimini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Davlat xizmatlarining adolatli va halol yuritilishi uchun korrupsiyaviy xavflarni erta aniqlash, baholash va samarali boshqarish zarurati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, korrupsiyaning yuzaga kelishiga olib keluvchi omillarni tizimli ravishda tahlil qilish, ularning oldini olishga qaratilgan proaktiv choralarni joriy etish bugungi kunda muhim vazifalardan biridir.

Shu nuqtai nazardan, korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish tizimining ilmiy asoslangan va amaliyotda samarali ishlaydigan modelini yaratish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat korrupsion holatlarning kamayishiga, balki davlat boshqaruvi jarayonlarining shaffof va hisobdor boʻlishiga xizmat qiladi.

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. – Toshkent: “Oʻzbekiston” nashryoti, 2021. 464 bet.

Birinchi bobda korrupsiyaviy xavf tushunchasi, ularni aniqlash va baholash metodlari, davlat boshqaruvida risklarni boshqarish tizimi, ichki nazorat va komplayens mexanizmlari tahlil qilinadi.

Ikkinchi bobda davlat boshqaruvida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish tizimini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar tahlili, ISO 31000 va ISO 37001 kabi xalqaro standartlar, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari, tajribasi o‘rganiladi va ularni O‘zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Uchinchi bobda davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari va istiqbollari o‘rganiladi.

I BOB. DAVLAT BOSHQARUVIDA KORRUPSIYAVIY XAVFLARNI ANIQLASH, BAHOLASH VA BOSHQARISH TIZIMINING NAZARIY VA TASHKILIY JIHATLARI

1.1. Davlat boshqaruvi va korrupsiyaviy xavflar borasidagi asosiy yondashuvlar

Koʻpchilik mutaxassislar korrupsiyaning sabablari siyosiy institutlarning mukammal emasligiga bogʻliq, deb bilishadi. Chunki, mamlakatning ichki va tashqi boshqarish mexanizmlari, asosan, ushbu institutlarning qanday ishlashiga bogʻliqdir. Bundan tashqari, aholining qonunni bilmasligi yoki tushunmasligi, mamlakatdagi siyosiy holatning barqaror emasligi, hukumat institutlarining oʻzaro hamkorlikda harakat qilish mexanizmining yoʻqligi, mamlakat byurokratik apparatining maqsadlari siyosiy elitaga tobe holda ishlashi, uning mamlakat rivojiga sust holda yondashishi, siyosiy oʻyinlarning avj olishi, yuqori turuvchi amaldorlarning tanish-bilish, quda-anda boʻlib hukumatni boshqarishga oʻz ta’sirini oʻtkazishi, ijro hokimiyatida birlikning yoʻqolishi, bitta yoʻnalishning bir nechta instansiyalar tomonidan boshqarilishi, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokining sustligi va boshqa holatlar korrupsiyaning sabablaridandir.

Korrupsiyaning rivojlanib ketishiga davlat sektorida ish haqining xususiy sektorga qaraganda kamligi, davlat tomonidan bozor iqtisodiyotining “tartibga solinishi”, fuqarolarning amaldorlarga boʻysunib qolishi, davlatning monopolistik siyosati, iqtisodning barqaror emasligi, iqtisodiy rivojlanishning pastligi ham sabab boʻlishi mumkin[1].

Davlat boshqaruvida korrupsiyaga oid xavf-xatarlar haqida umumiy tushuncha shakllantirish va davlat boshqaruvi organlarida yuzaga keladigan korrupsion tahdidlar toʻgʻrisida bilim olish uchun, avvalo, quyidagi tushunchalarning nazariy asoslariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

[1] Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas’ul muharrir: A.Sh. Bekmurodov: – Toshkent: “Akademiya”, 2022. 14-bet. https://stat.uz/images/Docs/korrupsiyaga-arshi-kurashish-darslik-2022.pdf

Birinchidan, davlat boshqaruvi nima va davlat boshqaruvi organlari haqida qanday umumiy yondashuvlar mavjud?

Ikkinchidan, korrupsiya tushunchasi nima?

Uchinchidan, korrupsiyaviy xavflar toʻgʻrisidagi fikr-mulohazalar va umumiy tushunchalar.

Ayni vaqtda boshqaruv tushunchasi keng maʼno aks ettirib, boshqaruv – bu boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiga nisbatan maqsadga muvofiq va doimiy taʼsir etish jarayoni hisoblanadi[1].

Shuningdek, huquqshunos olim G.V.Atamanchukning fikricha, boshqaruv – bu maqsadga muvofiq, yaʼni insonlar tomonidan oʻzlarining ijtimoiy hayot faoliyatlariga ongli ravishda, oldindan belgilangan tartibda tashkil etish va tartibga solish taʼsiri boʻlib, bevosita (oʻzini oʻzi boshqarish shaklida) yoki maxsus tuzilgan organlar va tuzilmalar (davlat organlari, jamoat birlashmalari) orqali amalga oshirilishi mumkin[2].

Yuqoridagi fikrlarni davom ettirib aytish mumkinki, davlat boshqaruvi umumiy boshqaruv tizimining muhim qismi sifatida namoyon boʻladi va davlatning strategik maqsadlarini amalga oshirishda asosiy vosita vazifasini bajaradi.

Hindistonlik olim Indira Gandi nomidagi milliy ochiq universiteti Akademik maslahatchisi Aarif Maqbool davlat boshqaruvi — bu davlat dasturlari va siyosatlarini boshqarish, ularning jamiyat manfaati uchun samarali bajarilishini taʼminlash sanʼati[3] — deb taʼrif bergan.

Filippinlik tadqiqotchi Ramos Danna Maening fikricha - boshqaruv mamlakat ishlarini boshqarish uchun siyosiy, iqtisodiy va maʼmuriy hokimiyatni

---

[1] Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административнойе право: Учебник для вузов. – М.: Норма, 2004. 19-б

[2] Атаманчук Г.В. Теория государственного управления: Курс лекций. М., 1997. 29-30-б.лар

[3] Maqbool, A. (2025, January 6). Introducing Public Administration At 10+2 Level: A Step Towards Empowering Future Leaders. Qaraldi: April 10, 2025, from Kashmir Reader website: https://kashmirreader.com/2025/01/07/introducing-public-administration-at-102-level-a-step-towards-empowering-future-leaders/

amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Yaxshi boshqaruv hisobdorlik, shaffoflik, samaradorlik va inson huquqlariga hurmatni amalga oshiradi[1] deya fikr bildirgan.

Bu tushunchani kengroq ma'noda tushuntiradigan bo'lsak, boshqaruv bu faqat hokimiyat organlarining ishi emas, balki butun jamiyatning farovonligi uchun qarorlar qabul qilish va ularni hayotga tatbiq etish jarayonidir. Yaxshi boshqaruv tizimida fuqarolar fikri inobatga olinadi, davlat xizmatlari samarali ko'rsatiladi va resurslar oqilona taqsimlanadi. Bu esa mamlakat barqaror rivojlanishi va aholi turmush darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Yuridik fanlar nomzodi, professor E.Xojievning fikriga ko'ra, ko'pgina hollarda, davlat boshqaruvi qonun chiqarish va odil sudlov faoliyati doirasidan tashqarida bo'lgan davlat va davlat-hokimiyat subyektlarining faoliyati sifatida namoyon bo'ladi[2]. Bu yondashuv davlat boshqaruvini boshqa hokimiyat tarmoqlaridan ajratishga harakat qiladi, ammo uni faqatgina "tashqarida bo'lgan faoliyat" deb belgilash unchalik aniq yondashuv emas. Chunki amaliyotda davlat boshqaruvi qonun chiqaruvchilar va sud tizimi bilan uzviy aloqada ishlaydi. Masalan, ijroiya hokimiyat qonunlarni amalda qo'llashi jarayonida parlament nazorati ostida bo'ladi, sudlar esa ijro faoliyati ustidan qonuniylikni tekshiradi. Shunday ekan, davlat boshqaruvini alohida "faoliyat sohasi" deb ko'rish to'g'ri bo'lsa-da, uni boshqa tarmoqlardan butunlay alohida deb tasvirlash murakkab davlat mexanizmini soddalashtirib yuboradi.

Biroq muallifning davlat boshqaruvi "hokimiyat subyektlari" tomonidan amalga oshiriladi degan g'oyasi haqiqatga juda yaqin. Bu fikr davlat boshqaruvida vakolatli organlar va mansabdor shaxslarning roli muhim ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, u davlat boshqaruvining amaliy tusdagi, kundalik faoliyat shakli ekanini ifodalaydi.

Yuridik fanlar doktori, professor T.Madumarov esa davlat boshqaruvini - ijro hokimiyatini amalga oshirishga qaratilgan hamda qonun chiqarish va odil

---

[1] Ramos, D. M. (2024). Understanding Governance and Political Science Concepts. Qaraldi: April 10, 2025, from Quizlet website: https://quizlet.com/study-guides/understanding-governance-and-political-science-concepts-33547549-62f3-43a0-938d-5b7654655264

[2] Xojiyev, E.T. (2006). Ma'muriy huquq: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: Adolat nashriyoti, 2006. 7-b.

sudlov faoliyatidan shakli, uslublari va mazmuniga koʻra ajralib turadigan alohida faoliyat turi hisoblanadi. Davlat boshqaruvi – bu qonunlar va boshqa normativ (qonunosti) hujjatlarni qoʻllash boʻyicha olib boriladigan farmoyish berish faoliyatidir[1] deb ta'kidlaydi.

T.Madumarovning davlat boshqaruvi - bu qonunlarni hayotga tatbiq etish vositasi, degan yondashuvi nazariy jihatdan toʻgʻri. Zero, ijro hokimiyati qonunlarni real hayotga moslab qoʻllashda markaziy oʻrin tutadi. Ayniqsa, "qonunosti hujjatlarni farmoyishlar orqali amalga oshirish" fikri, davlat boshqaruvining amaliy mexanizmlariga urgʻu beradi.

Yuridik fanlar doktori, professor F.Primovning fikricha esa boshqaruv bilan bogʻliq omillar asosan davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirishga oid gibrid tezislarni ifodalaydi. Bunda boshqaruvning huquqiy va tashkiliy jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, davlat boshqaruv organlari faoliyatida shaffoflikning ta'minlanganligi, jamoatchilik nazorati uchun ochiqligi, ma'muriy apparatning — korrupsiya bardoshligi kabi koʻplab omillar nazarda tutiladi[2].

Gibrid yondashuvning nazariy asoslari haqida gapirganda, professor F.Primovning konsepsiyasi bir necha asosiy tamoyillarga asoslanadi. Birinchidan, kompleks yondashuv davlat boshqaruvini faqat bitta nuqtai nazardan emas, balki turli sohalardagi bilimlarni uygʻunlashtirgan holda koʻrib chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv huquqiy normalar va amaliy boshqaruv jarayonlarini birlashtiradi, nazariy asoslar va empirik tajribalarni sintez qiladi, milliy va xalqaro standartlarni muvofiqlashtiradi.

Ikkinchidan, dinamik moslashuvchanlik gibrid tezislarning muhim xususiyatidir. Bu tizim statik emas, balki oʻzgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashish qobiliyatiga ega, yangi texnologik imkoniyatlardan foydalanadi va xalqaro tajribalar asosida doimiy takomillashib boradi.

---

[1] Madumarov Talantbek Tolibjonovich. (2024). Davlat boshqaruvi mazmuni va oʻziga xos xususiyatlari. pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar | Journal of pedagogy, psychology and social research, 3(6), 100–105. Qaraldi: from https://mudarrisziyo.uz/index.php/pedagogika/article/view/1270

[2] Primov, F.A. Davlat Boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurashishning ma'muriy-huquqiy jihatlarini takomillashtirish. Dissertatsiya Онлайн-сообщество юристов. Justy.uz, 2023. 35-bet.

Boshqaruv tizimidagi gibrid elementlar an'anaviy va zamonaviy uslublarni birlashtiradi. An'anaviy boshqaruv uslublari iyerarxik tuzilma va vazifalar taqsimoti, rasmiylashtirilgan tartib-qoidalar va protseduralar, davlat hokimiyatining markazlashtirilgan nazoratini oʻz ichiga oladi. Zamonaviy yondashuvlar esa demokratik ishtirok va konsensus qurish, shaffoflik va ochiqlik tamoyillari, raqamli texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi.

Yuridik fanlar nomzodi, dotsent Sh.Nazarov "davlat boshqaruvidan koʻzlangan asosiy maqsad davlatning toʻlaqonli faoliyatini tashkil etish, ijro hokimiyatini amalga oshirish, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar ijrosini ta'minlashdir. Ya'ni qonunlarda belgilangan qoidalar, huquq yoki majburiyatlar, taqiq va cheklovlar, imtiyozlar va boshqalarni jamiyatda qoʻllash faoliyati desak mubolagʻa boʻlmaydi" deya fikr bildiradi[1]. Sh.Nazarov ta'kidlaganidek, davlat boshqaruvining qonunlarga asoslanganligi — bu eng muhim va inkor etib boʻlmaydigan jihatdir. U adolatli ravishda ta'kidlaydiki, davlat boshqaruvi – bu qonunlar orqali ijtimoiy hayotni tartibga solish vositasidir. Bu fikr ayniqsa huquqiy davlat tamoyillarini rivojlantirishda dolzarbdir.

Fikrimizcha esa davlat boshqaruvi bu - qonunlarni qoʻllash, ijtimoiy tartibni ta'minlash va ijro hokimiyatini amalga oshirish vositasi sifatida tushuniladi. Har bir yondashuv muayyan jihatdan toʻgʻri, shu bilan birga zamonaviy davlat boshqaruvi endi faqat farmoyishlar tizimi emas, balki ishonch, xizmat, raqamlashtirish va jamoatchilik ishtirokiga asoslangan boshqaruv modeli sifatida shakllanmoqda.

Davlat boshqaruvi asosan ijro hokimiyatini roʻyobga chiqarish vazifasini bajaradi. Tashkiliy jihatdan qaraganda, davlat boshqaruvi jarayonida boshqaruvchi tomon (davlat, uning organlari yoki mansabdor shaxslar) boshqariluvchi tomon (jamiyat, fuqarolar)ga nisbatan hokimiyat vakolatlarini qoʻllaydi.

[1] Назаров, Ш. Научные подходы к коррупционным рискам. Общество и инноватсии, 6(1), 302-308. 2025-й.

Bu tushuncha yanada aniqroq ta’riflansa, davlat boshqaruvi – qonunlar doirasida va ularni amalda tatbiq etish uchun turli yo‘nalishlarda (ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va ma’muriy-siyosiy sohalarda) davlat boshqaruvi vazifalarini amalga oshiruvchi ijro hokimiyati tuzilmalarining maqsadli, qonunlarga bo‘ysunuvchi, ijro etuvchi-buyruq beruvchi hamda tartibga solish yo‘nalishidagi faoliyatini anglatadi.

Tarixda ham bugungi kunda ham davlat boshqaruvida korrupsiya eng og‘riqli nuqtalardan biri bo‘lib kelgan. Korrupsiya davlatning rivojlanishini ortga suruvchi eng katta omillardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Olimlarning ta’kidlashicha, korrupsiyaning ilmiy manbasi turli xalqlarning sovg‘a berish an’analariga borib taqaladi. Bugungi kunda pora sifatida qaraladigan har qanday hadyalar yoki qurbonliklar tarixan shakllangan bo‘lib, ularning ildizlari feodalizm davrida hukmron bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy munosabatlarga borib taqaladi. Bu holat an’anaviy xarakterga ega bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan amaliyot sifatida namoyon bo‘ladi.

Xitoylik islohotchi Vang Anshi (1021–1086) korrupsiya to‘g‘risida yozgan asarida uning ikkita manbasini ta’kidlagan bo‘lib ular: “yomon qonunlar va yomon odamlar”[1]. Vang Anshining fikri bugungi kunda ham dolzarb — ayniqsa, u qonun sifati va inson omilining korrupsiyaga bog‘liqligini to‘g‘ri ilg‘agan. Haqiqatan ham, korrupsiyaga qarshi kurashda sog‘lom qonunchilik va toza xulqli kadrlarsiz muvaffaqiyatga erishish imkonsiz. Shu jihatdan bu ikki omil — qonun va shaxs — har qanday korrupsiyaga qarshi strategiyaning markazida turadi.

Sharq mutafakkiri Ibn Xaldun nafaqat ilmiy nazariya va sotsiologiyaning asoschisi, balki korrupsiya tadqiqotchisi sifatida ham tanilgan. U korrupsiyaning manbalarini elitalarning dabdabali hayotga bo‘lgan ishtiyoqida ko‘rdi. Uning ta’kidlashicha, korrupsiya davlatni iqtisodiy inqiroziga olib keladi. Korrupsiyani ma’lum vositalar orqali cheklanmasdan unga qarshi samarali kurashib bo‘lmaydi[2].

---

[1] Васильев Сергей Александрович (2021). Реформаторское движение в китае в эпоху династии северной сун. Вопросы теоретической экономики, (4), 121-137.

[2] Жамсатов Алихан Кайыргельдинович (2016). Коррупция как политическая проблема в современном мире. European journal of law and political sciences, (4), 45-48.

Ibn Xaldun korrupsiyaning davlat iqtisodiyotiga bevosita ta’sir qilishi haqidagi qarashi bugungi davlat moliyasini boshqarish prinsiplarida ham aks etmoqda. Xususan, u korrupsiyani shunchaki axloqiy muammo emas, balki davlat barqarorligiga tahdid soluvchi real iqtisodiy xavf sifatida tushungan. Bu yondashuv zamonaviy “institutsional iqtisodiyot” nazariyalariga ham yaqin. Shuningdek, u korrupsiyaga qarshi kurashda chora-tadbirlar tizimining boʻlishini alohida urgʻulab, passiv qarshilik emas, balki faol siyosiy iroda zarurligini ilgari suradi — bu esa dolzarb saboqdir.

Albatta, davlat boshqaruvida eng ogʻriqli jarayonlardan biri korrupsiyaviy xavflardir. Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 31-avgustda qabul qilingan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy boʻlinmalari, davlat muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori 3-bandida korrupsiyaviy xavf-xatar haqida aniq tarif berilgan boʻlib unga koʻra korrupsiyaviy xavf-xatar — shaxsning oʻz mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud oʻzga shaxslarning manfaatlarini koʻzlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli hisoblanadi[1].

Ya’ni, bu shaxs tomonidan oʻzining lavozim yoki xizmat mavqeyidan foydalanib, qonuniy talablarga zid tarzda oʻzining yoki boshqa shaxslarning moddiy yoki nomoddiy manfaatlarini koʻzlab korrupsiyaviy xatti-harakatlarni amalga oshirish ehtimolini bildiradi. Mazkur xavf-xatar, odatda, mavjud sabab va sharoitlar — ya’ni tizimdagi zaifliklar, nazorat mexanizmlarining sustligi, manfaatlar toʻqnashuvi yoki jazosizlik muhiti bilan chambarchas bogʻliq boʻladi.

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 31-avgustda qabul qilingan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy boʻlinmalari, davlat muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori. https://www.lex.uz/uz/docs/-6178891

Korrupsiyaviy xavf davlat yoki nodavlat tashkilotlari faoliyatida korrupsiya holatlarining yuzaga kelish ehtimoli boʻlgan sharoit, holat yoki omillardir. Bunday xavflar, odatda, qaror qabul qilishda shaffoflikning yoʻqligi, manfaatlar toʻqnashuvi, vakolatlarning suisteʼmol qilinishi, byurokratik toʻsiqlar yoki jazosizlik muhiti natijasida yuzaga keladi.

Bu borada bir qator olimlar ham izlanishlar olib borgan va oʻz nazariyalarini ilgari surishgan.

Amerikalik olim Maykl Jonston oʻzining “Korrupsiya sindromlari: boylik, hokimiyat va demokratiya” nomli asarida shunday deydi: “Korrupsiyaviy xavf faqatgina yomon niyatli shaxslar haqida emas, balki siyosiy va maʼmuriy institutlardagi tizimli zaifliklar haqida boʻlib, aynan shunday zaifliklar buzgʻunchi xatti-harakatlarga yoʻl ochadi”[1].

Darhaqiqat, korrupsiyani faqatgina “yomon odamlar” ishi deb emas, balki tizimdagi zaifliklar natijasi sifatida koʻradi. Agar siyosiy va maʼmuriy institutlar kuchsiz boʻlsa, nazorat va muvozanat mexanizmlari ishlamasa, u holda korrupsion harakatlar uchun qulay muhit vujudga keladi. Yaʼni, u sababga emas, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi sharoitlarga eʼtibor qaratadi. Bu yondashuv profilaktik, yaʼni oldini olishga qaratilgan yondashuvdir.

Buyuk Britaniyalik olim Den Xaff esa shunday yozadi: “Korrupsiyaviy xavfni baholash davlat boshqaruvida moliyaviy yoki operatsion xavflarni boshqarish kabi muntazam amaliyotga aylanishi kerak”[2].

Demak, Korrupsiyaviy xavfni davlat boshqaruvida tahlil qilish va muntazam baholab borishni tizimli faoliyatga aylantirish zarurligini taʼkidlaydi. Bu fikr shuni anglatadiki, korrupsiyaviy xavflar tasodifiy yoki epizodik emas, balki doimiy monitoring va boshqaruv talab qiladigan xavflardir.

Gʻarb olimlari korrupsiyaviy xavflar tushunchasini taʼriflashda institutsional yondashib, davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi normalarning ishlashi ustidan nazorat mexanizmlari ishlamasligi natijasida korrupsiya

[1] Johnston, M. (2005). Syndromes of Corruption: Wealth, Power, and Democracy. Cambridge University Press.
[2] Hough, D. (2017). Analysing Corruption: An Introduction. Agenda Publishing.

jinoyatining sodir etilish holatlari deya izohlashgan[1]. G‘arb olimlari korrupsiyaviy xavfni tizimli, ya’ni institutsional nuqtayi nazardan baholashga intiladi. Ular korrupsiya shunchaki shaxsiy xatti-harakat emas, balki tashkiliy nazorat mexanizmlarining yetarli emasligi tufayli yuzaga keladi, deb hisoblaydi. Bu yondashuv zamonaviy davlat boshqaruvining murakkab tizimini yaxshi yoritadi. Biroq ayrim hollarda bu ta’rifda inson omili, axloqiy me’yorlar, shaxsiy motivlar yetarli darajada ko‘zda tutilmagan. Nazorat tizimi mukammal bo‘lsa ham, xodimning xatti-harakati muhim o‘rin tutadi. Shunga qaramay, bu yondashuv korrupsiyani tizimli yondashuv orqali anglash uchun muhim asosdir. Ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashda nazorat, shaffoflik, hisobdorlik va javobgarlik mexanizmlarining roli ustuvor ekanini to‘g‘ri ko‘rsatadi. Xususan, kuchli audit, ichki nazorat, manfaatlar to‘qnashuvini cheklash va ommaviy axborot vositalarining erkinligi — institutsional yondashuvning tayanchlaridir.

Saratov davlat milliy tadqiqot universiteti dotsenti E.V. Porezanova davlat xaridlarida korrupsiyaviy xavflarni tahlil qilib, asosiy xavf omillari sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi: qaror qabul qiluvchi xodimlarning pora olish ehtimoli, buyurtmachi tomonidan qaror qabul qiluvchi shaxslarning sotib olinishi, va uchinchi shaxslarga yopiq ma’lumotlarning oshkor qilinishi[2]. Porezanova fikrida korrupsiyaviy xavflar asosan davlat xaridlari jarayonida yuzaga keladigan subyektiv xatti-harakatlar bilan bog‘langan. Bu ta’rif voqelikka yaqin bo‘lsa-da, xavflarning tashkiliy, normativ va texnologik jihatlari ko‘lami eng asosiy jihatlardan biri hisoblanadi. Masalan, tender hujjatlarining murakkabligi, ekspert baholashning noaniqligi, yoki onlayn platformalarning kamchiligi kabi tizimli xavf manbalari ham mavjud. Ayni soha — pora, manfaatlar to‘qnashuvi, ichki aloqa va noqonuniy lobbichilikning o‘chog‘i bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, u ta’kidlagan “yopiq

[1] Fazekas, M., Tóth, I. J., & King, L. P. (2016). An Objective Corruption Risk Index Using Public Procurement Data. European Journal on Criminal Policy and Research, 22(3), 369–397. https://doi.org/10.1007/s10610-016-9308-z

[2] Порезанова Е.В. (2015). Коррупционные риски в системе государственных закупок в России. Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия Экономика. Управление. Право, 15 (4), 363-367. DOI: 10.18500/1994-2540-2015-15-4-363-367

ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga yetkazish” — korrupsiyaning zamonaviy raqamli shakllari uchun dolzarb xavfdir.

Yuridik fanlar nomzodi, dotsent Sh.Nazarov oʻz tadqiqotlarida korrupsiyaviy xavflar haqida soʻz yuritarkan korrupsiyaviy xavflar – ishonib topshirilgan vakolatdan manfaatdorlikni koʻzlab moddiy yoki nomoddiy foyda koʻrish maqsadida qonunga xilof ravishda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli[1] deya ta’riflaydi. Ushbu ta’rif korrupsiyaning mohiyatini mukammal ochib beradi — bu ishonchga asoslangan vakolatni notoʻgʻri ishlatishdir. Ayniqsa, “moddiy va nomoddiy foyda” tushunchasi orqali u korrupsiyaning nafaqat pul bilan bogʻliq, balki lavozim, qulaylik, aloqadorlik kabi yashirin shakllarini ham qamrab olgan. Shuningdek, “ehtimollik” mezonining kiritilishi bu ta’rifni baholash va monitoring uchun asos sifatida ishlatishga moslashtiradi.

Fikrimizcha, Korrupsiyaviy xavflar – bu davlat organlari yoki tashkilotlar faoliyatida korrupsiya sodir boʻlishi mumkin boʻlgan ehtimolli holatlar va zaif nuqtalardir. Sodda qilib aytganda poraxoʻrlik yoki noqonuniy harakatlar yuz berishi mumkin boʻlgan joy yoki vaziyat.

Demak, xavfni oddiy jinoyat emas, balki tizimli muammo sifatida qabul qilishimiz zarur. Chunki u faqat pora olish yoki berish bilan cheklanmaydi, balki butun boshqaruv tizimining ishonchliligi, adolatliligi va samaradorligiga tahdid soladi. Agar bu xavflar aniqlanmasa yoki nazorat qilinmasa, jamiyatda adolat, tenglik va qonun ustuvorligi yoʻqqa chiqadi.

Korrupsiyaviy xavflarni oʻrganish bugungi kunda ayniqsa dolzarb. Birinchidan, global miqyosda davlatlar korrupsiyani kamaytirish orqali sarmoyadorlar ishonchini qozonmoqda. Ikkinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashishning an’anaviy choralaridan farqli ravishda, xavflarni oldindan aniqlab, ularni minimallashtirish samaraliroq va iqtisodiy jihatdan tejamliroq yondashuvdir.

---

[1] Назаров, Ш. Научные подходы к коррупционным рискам. Общество и инноватсии, 6(1), 302-308. 2025-й.

Bugungi kunda Korrupsiyani nazorat qilish eng muhim chora-tadbirlardan biri hisoblanadi. Korrupsiyaviy xavflarni boshqarish (CRM – *Corruption Risk Management*) – bu davlat organlari va tashkilotlar tomonidan korrupsiya ehtimoli yuqori boʻlgan sohalar, jarayonlar va faoliyat yoʻnalishlarini oldindan aniqlash, ularni baholash, shuningdek, bu xavflarni kamaytirish yoki butunlay bartaraf etishga qaratilgan tizimli, davriy va doimiy chora-tadbirlar majmuasidir[1].

Boshqacha qilib aytganda, CRM korrupsiya sodir boʻlganidan soʻng jazolashga emas, balki korrupsiyaviy harakatlar yuzaga kelishining oldini olishga yoʻnaltirilgan proaktiv yondashuvdir. Bu yondashuv orqali shubhali faoliyatlar va salbiy oqibatlar yuzaga kelmasidan oldin ularning ehtimoli aniqlanadi va zaruriy profilaktika choralari koʻriladi.

Misol tariqasida ilgʻor davlatlar (masalan, Singapur, Estoniya, Yangi Zelandiya) korrupsiyaga qarshi kurashda riskka[2] ya’ni korrupsiyani boshqarish asoslangan yondashuvni qoʻllamoqda. Bu yondashuvda tashkilot faoliyatidagi zaif nuqtalar aniqlanadi, ularning korrupsiya uchun qulaylik darajasi baholanadi, oldini olish choralari ishlab chiqiladi.

Korrupsiyaviy xavflarni boshqarish konsepsiyasida asosiy e’tibor muammolarni kechiktirmay, ularni paydo boʻlishidan oldin bartaraf etishga qaratiladi. Ya’ni bu yondashuvda davlat va tashkilotlar faqat holatga reaksiya bildiruvchi emas, balki tizimni sogʻlomlashtiruvchi faol subyektlarga aylanishi koʻzda tutiladi.

Ushbu tizimning joriy etilishi quyidagi muqarrar ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi:

Davlat va tashkilotlar faoliyati shaffof va hisobdor tizimga aylanadi. Barcha jarayonlar aniq mezonlar asosida baholanadi, qarorlar ochiq muhokama qilinadi va har bir mansabdor oʻz faoliyati uchun javobgar boʻladi.

[1] United Nations Development Programme (UNDP). (2019). *Corruption Risk Management for Public Institutions: A Practical Guide*.
[2] Risk — bu potentsial, son bilan oʻlchanadigan yoʻqotish ehtimoli.

Fuqarolarning davlat boshqaruviga boʻlgan ishonchi ortadi. Korrupsiya xavflarining kamayishi aholining ijtimoiy adolatga, qonun ustuvorligiga boʻlgan ishonchini mustahkamlaydi.

Xalqaro hamkorlik va sarmoyadorlar uchun ijobiy imidj shakllanadi. Korrupsiyaga qarshi tizimli kurash olib borilayotgan davlatlar barqaror iqtisodiy muhit yaratadi va xorijiy investorlar uchun ishonchli sherikka aylanadi.

Korrupsiyaviy xavflarni boshqarish – zamonaviy davlat boshqaruvida ajralmas boʻgʻinga aylangan. U korrupsiyaga qarshi kurashda jazo berishdan koʻra samaraliroq boʻlgan profilaktik, tizimli yondashuvni ifodalaydi. Shu bois, mazkur konsepsiyani amaliyotga joriy etish, ayniqsa Oʻzbekiston sharoitida, korrupsiyani tubdan kamaytirish, boshqaruv islohotlarini chuqurlashtirish va fuqarolarga xizmat qiluvchi davlatni shakllantirishning eng muhim vositalaridan biridir.

Ushbu xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish orqali biz korrupsiyaning ildiziga qarshi kurash olib boramiz. Bu esa qonunchilikni mustahkamlash, boshqaruv tizimini isloh qilish va fuqarolarning davlatga boʻlgan ishonchini oshirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

1.2. Korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarishning uslublari, mezonlari

Korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarishning uslublari, mezonlari, bu borada jinoyatlarni aniqlash, huquqbuzarliklarga nisbatan chora koʻrish — bu sohada olib borilayotgan islohotlarning poydevori hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurash agentligining soʻngi 2024-yilda oʻrganishlar natijasida aniqlangan qonun buzilishi holatlariga huquqiy baho berish uchun 282 ta material huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilib, ular asosida umumiy 25 ta jinoyat ishi va 104 ta maʼmuriy ish qoʻzgʻatilgan. (Qarang: 2-ilova)

Oʻtkazilgan oʻrganishlar natijasida jami 222,7 mlrd soʻmlik moddiy zararning davlat byudjetiga qaytarilishi yuzasidan qarorlar qabul qilingan. Ommaviy axborot vositalarida korrupsiya holatlariga yoʻl qoʻyilayotganligi

yuzasidan e'lon qilingan 25 ta xabarlar oʻrganilib, ularning 23 tasi boʻyicha davlat xaridlarida qonunbuzilishi holatlarining mavjudligi hamda 2 tasida davlat xizmatchilari tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanib kelayotgani aniqlandi va qonunbuzilishi holatlari bartaraf etilgan[1].

Shu bilan birga Agentlik tomonidan 327 ta` normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan oʻtkazilib, natijalariga koʻra 327 ta loyihaning 71 foizida yoki 233 tasida 676 ta korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar aniqlandi va ularni bartaraf etish choralari koʻrildi[2].

Yuqoridagi holatlarni oldini olish uchun albatta korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarishning uslublari, mezonlarini tahlil qilish orqali korrupsiyaning oldini olishga doir yangi mexanizmlarni milliy qonunchilikka tatbiq etish mumkin.

Korrupsiyaning oldini olishda ana shu xavflarni aniqlash va baholash shu bilan birga boshqarish jarayoni eng muhim omil hisoblanadi. Chunki "kasalni davolagandan koʻra, oldini olgan afzal" degan gap bejiz aytilmagan.

Endi korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va baholash boʻyicha olimlar nazariyalariga toʻxtalib oʻtsak. Yel Universiteti (Yale University) professori, huquq oʻqituvchisi Syuzan Rouz-Akermanning fikriga koʻra — bugungi globallashuv davrida davlat institutlari faoliyatida ochiqlik, halollik va hisobdorlik tamoyillari asosida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va ularni tizimli ravishda boshqarish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda[3].

Bu holatda "ochiqlik, halollik va hisobdorlik" tamoyillari korrupsiyaviy xavflarga qarshi eng muhim profilaktik vosita sifatida koʻrilmoqda. Ayniqsa, davlat organlarida ma'lumotlar ochiqligi, qaror qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki va

[1] Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tahlil va monitoring qilish boshqarmasi. https://anticorruption.uz/oz/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-tizimini-tahlil-va-monitoring-qilish-boshqarmasi-togrisida

[2] Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2024 yildagi faoliyati toʻgʻrisida ma'lumot. https://aca.uz/storage/RqmwTntfrqCuv70brYhAiASIs2Xxqemeta0JDQs9C10L3RgtC70LjQuiAyMDI0INC50LjQuy5wZGY=-.pdf

[3] Rose-Ackerman, S. (2006). International Handbook on the Economics of Corruption. Edward Elgar Publishing. http://ndl.ethernet.edu.et/bitstream/123456789/45633/1/97.pdf

hisobot berish mexanizmlarining mavjudligi korrupsiya darajasini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, bu tamoyillar korrupsiyaga qarshi kurashda institutsional islohotlar uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Masalan, elektron hukumat tizimlari, davlat xaridlarining ochiqligi, xodimlarning faoliyatini baholash mexanizmlari aynan shunday tamoyillarga tayanadi.

Amerikalik akademik, Klermont universiteti sobiq prezidenti Robert Klitgaard — korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat jazolash, balki ilgʻor xavf tahlili tizimlarini joriy etishni ham talab qiladi deya fikr bildiradi[1]. Bu fikr korrupsiyaga qarshi kurashda faqat jazoga asoslangan yondashuvning yetarli emasligini koʻrsatadi. An’anaviy yondashuvlar koʻproq huquqbuzarlik sodir boʻlganidan soʻng chora koʻrishga qaratilgan boʻlsa, zamonaviy yondashuvlar – oldini olish (preventiv) va ehtimoliy xavflarni erta aniqlashga qaratilgan.

Yevropalik nufuzli ekspert Alina Mungiu-Pippidi korrupsiyaga qarshi kurashda institutsional yondashuvni ilgari suradi. U Oʻrta va Sharqiy Yevropada davlat boshqaruvida korrupsiyani kamaytirish uchun “jamoatchilik hisobdorligi, shaffoflik va ijtimoiy kapitalni kuchaytirish orqali institutlar qobiliyatini oshirish zarurligini ta’kidlaydi[2]. U institutlarni shaffoflashtirish va fuqarolarni faol jalb qilish orqali “Integrator institutlarga koʻchirish” konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etishni maqsad qiladi.

Korrupsiyani aniqlash boʻyicha nazariy yondashuv, avvalo, boshqaruv tizimidagi zaifliklarni aniqlash bilan chambarchas bogʻliq. Bu zaifliklar – korrupsiya uchun “qulay muhit” yaratadi. Ayniqsa, byurokratik jarayonlarning ortiqcha murakkabligi, hujjatlar aylanishining uzoqligi yoki shaffof boʻlmagan axborot oqimi kabi omillar korrupsiya xavfini keskin oshiradi.

Nazariy yondashuv jihatdan korrupsiyaviy xavflarni aniqlash jarayoni davlat boshqaruvi faoliyatidagi zaif nuqtalarni aniqlashdan boshlanadi.

---

[1] Klitgaard, R. (2025). Controlling Corruption. Qaraldi: from Google Books website: https://books.google.co.uz/books?hl=en&lr=&id=8V71EAAAQBAJ&oi=fnd&pg=PP1&ots=4j-5dzKDm-&sig=DkRfhxUwv2h6DqMnG4xIme7LArg&redir_esc=y#v=onepage&q&f=false

[2] Mungiu-Pippidi, A. (2015). *A Quest for Good Governance*. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9781316286937

Transparency International tashkiloti maʼlumotlariga koʻra, koʻplab korrupsiya holatlari aynan byurokratik toʻsiqlar va maʼlumotlarning yopiq boʻlishidan kelib chiqadi[1].

Transparency Internationalning tahlillari shuni koʻrsatadiki, korrupsiya koʻpincha aynan institutsional ochiqlik yetishmovchiligi tufayli yuzaga keladi. Shunday sharoitda davlat fuqarolarga xizmat koʻrsatish oʻrniga, noaniq va sirli tuzilmaga aylanib qoladi.

Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti tadqiqotchisi T.V. Xachirov tashkilotlarda korrupsiyaviy xavflarni boshqarish tizimini yaratish zarurligini taʼkidlaydi. Unga koʻra, bu tizim korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni aniqlash, ustuvor yoʻnalishlarni belgilash va tekshiruvlarni tartibga solish kabi elementlarni oʻz ichiga olishi lozim. Korporativ madaniyatni rivojlantirish va xodimlarni muntazam oʻqitish ham muhim omillar sifatida qayd etiladi[2].

Bu yondashuv davlat boshqaruvida xavflarga tizimli yondashishni anglatadi.

Fikrimizcha, korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish uchun “nol toqatsizlik” siyosatiga oʻtganimiz maʼqul. Bu siyosat korrupsiyaga nisbatan mutlaqo murosasizlikni anglatadi. Ushbu yondashuvning asosiy tamoyili shuki: har qanday, hatto eng kichik korrupsiyaviy holat ham eʼtibordan chetda qolmaydi va jazoga tortiladi. Bu strategiya, ayniqsa, Singapurda oʻzini oqlagan.

Fikrimizni isboti tariqasida singapurlik olim Korrupsiyaga qarshi consultant (maslahatchi) Jon Quahning fikriga yuzlansak. U oʻz tadqiqotida – “xalqaro tajriba yaʼni — Singapur, Shvetsiya va Estoniya tajribasi shuni koʻrsatadiki, korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish uchun “zero tolerance”[3] (nol

[1] Transparency International. (2023). Transparency International — The Global Anti-Corruption Coalition. Qaraldi: Transparency.org website: https://www.transparency.org

[2] Хачиров, Т. В. Управление коррупционными рисками в организатсии / Т. В. Хачиров // Вестник Евразийской науки. — 2023. — Т 15. — № s6. — URL: https://esj.today/PDF/45FAVN623.pdf (дата обращения: 05.04.2025).

[3] **Zero tolerance** — bu xatto eng kichik korrupsiya holati ham eʼtiborsiz qolmaydi, darhol aniqlanadi va jazolanadi degani.

toqatsizlik) siyosati, elektron boshqaruv tizimlari va raqamli shaffoflik muhim ahamiyat kasb etadi” – deb aytib oʻtgan[1].

Korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish davlat boshqaruvi samaradorligi, shaffoflik va fuqarolar ishonchini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish bugungi davlat boshqaruvida korrupsiyaning oldini olishda markaziy oʻrin tutuvchi mexanizmdir. Bu jarayonlar korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir boʻlishidan oldin ularning ehtimolini aniqlash, xavf darajasini baholash va unga qarshi samarali choralar koʻrishga qaratilgan proaktiv yondashuv hisoblanadi.

Mamlakatimiz qonunchiligida esa korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkil etish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Adliya vazirligining 2022-yil 31-avgustda qabul qilingan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy boʻlinmalari, davlat muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarorida[2] belgilangan. Unga koʻra:

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni samarali aniqlash va baholash har bir davlat tashkilotining butun tizimini – ya’ni markaziy, tarkibiy va hududiy boʻlinmalarini toʻliq qamrab olishi kerak. Bunday aniqlash va baholash ishlari davlat tashkiloti tarkibida tuziladigan maxsus boʻlinma yoki ishchi guruh tomonidan olib boriladi. Ishchi guruh odatda davlat tashkilotining tarkibiy boʻlinmalari rahbarlari ishtirokida tuziladi va ularning tarkibi birinchi rahbar tomonidan tasdiqlanadi. Shu bilan birga, ishchi guruh faoliyati aynan birinchi rahbar tomonidan muvofiqlashtiriladi.

---

[1] Quah, J. S. T. (2011). Curbing Corruption in Asian Countries: An Impossible Dream? Curbing Corruption in Asian Countries: An Impossible Dream?, (978-0-85724-819-0), i. https://doi.org/10.1108/s0732-1317(2011)0000020023

[2] Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 31-avgustda qabul qilingan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy boʻlinmalari, davlat muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori. https://www.lex.uz/uz/docs/-6178891

Maxsus boʻlinma yoki ishchi guruhning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash boʻyicha ishlarni tashkil etish, davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish, ushbu xarita asosida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi loyihasini tayyorlash. Bundan tashqari, tarkibiy va hududiy boʻlinmalar tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaviy xavf-xatar xaritalari va tegishli dasturlarni tahlil qilish, ularni takomillashtirish boʻyicha takliflar ishlab chiqish ham ularning vazifasidir. Agentlik va jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar asosida korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va kurashish dasturlarini yangilab borish ham muhim yoʻnalishlardan biri hisoblanadi.

Davlat tashkilotining hududiy va tarkibiy boʻlinmalari doirasida tuzilgan ishchi guruhlar ham oʻz navbatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlarini ishlab chiqish ishlarini olib boradi. Korrupsiyaviy xavflarni aniqlash jarayonida davlat tashkiloti faoliyatining tavsifi tuziladi. Bu tavsif tashkilotning asosiy funksiyalari, vakolatlari, ish yuritish tartibi va xizmat vazifalarini oʻz ichiga oladi.

Korrupsiyaviy xavflarni aniqlashda quyidagi holatlar alohida tahlil qilinadi: xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsion huquqbuzarliklar, faoliyat davomida sun’iy toʻsiqlar yaratilgan holatlar, qarorlar qabul qilishdagi sustkashlik yoki asossiz tezlik, hujjatlar va axborot bazalariga soxta ma’lumotlar kiritilishi, manfaatlar toʻqnashuvi, shuningdek, mahalliychilik, homiylik va urugʻ-aymoqchilik kabi omillar.

Aniqlangan xavf-xatarlar darajasi esa uch bosqichda – past, oʻrta va yuqori – deb baholanadi. Bu baholash asosida tashkilot tomonidan zarur chora-tadbirlar koʻriladi, xatarlar pasaytiriladi yoki bartaraf qilinadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash doimiy ravishda yangilanib borilishi, ichki va tashqi muhitdagi oʻzgarishlarga mos tarzda takomillashtirilishi lozim. Shuningdek, jamoatchilik fikrini inobatga olish, tahliliy materiallar asosida qarorlar qabul qilish va aniq xavf darajasiga qarab maqsadli

profilaktika tadbirlarini ishlab chiqish samarali korrupsiyaga qarshi tizimning asosiy koʻrinishlaridan biri sanaladi.

Baholashdan keyingi bosqich bu — korrupsiyaviy xavflarni boshqarishdir. Boshqarish deganda, aniqlangan xavflarni kamaytirish yoki butunlay yoʻq qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi tushuniladi. Bu choralarga tashkiliy oʻzgartirishlar, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, inson aralashuvini kamaytirish, raqamli texnologiyalar joriy etish, xodimlar rotatsiyasi, jamoatchilik nazorati va boshqa vositalar kiradi. Har bir aniqlangan xavfga qarshi alohida choralar belgilanib, ular boʻyicha ijrochi xodimlar tayinlanadi va monitoring tizimi yoʻlga qoʻyiladi. Boshqaruv jarayonida tashkilot rahbariyati, ichki audit xizmati, korrupsiyaga qarshi masʼul shaxslar hamda muvofiqlik nazorati tizimi muhim rol oʻynaydi. Xavflarni boshqarish faoliyati faqat bir martalik emas, balki doimiy, tizimli va davriy ravishda amalga oshiriladigan jarayondir.

Korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish amaliyotining oʻzbek qonunchiligida alohida oʻrin egallashi bejiz emas. Bu tizimning joriy etilishi davlat xizmatlarining shaffofligini taʼminlash, jamoatchilik ishonchini oshirish, xalqaro reytinglardagi Oʻzbekistonning oʻrnini yaxshilash, eng asosiysi esa korrupsiyani ildizidan yoʻq qilishga xizmat qiladi. Bugungi global tendensiyalarda korrupsiyani jazolashdan koʻra, uni oldini olishga qaratilgan yondashuv ustuvor deb eʼtirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, korrupsiyaviy xavflarni oldindan aniqlash, ularni baholab, toʻgʻri boshqarish – davlat boshqaruvi tizimining sifatli ishlashining, ijtimoiy adolatni taʼminlashning va huquqiy davlat barpo etishning eng muhim kafolatlaridan biridir.

Korrupsiyaviy xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirishda xorijiy tajribalarni chuqur oʻrganish va mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Dunyoning ilgʻor davlatlari korrupsiyani jazolash bilan emas, balki oldini olishga qaratilgan tizimli yondashuvlar orqali muammoga barham berishga intilmoqda. Xususan, korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish tizimi bir qator mamlakatlarda amaliyotga joriy qilingan boʻlib, ularning yondashuvi Oʻzbekiston uchun foydali naʼmuna boʻlishi mumkin.

Masalan, AQShda korrupsiyaviy xavflarni boshqarish davlat xizmatidagi etik me'yorlar va ichki audit tizimi orqali amalga oshiriladi. Federal darajada maxsus "Office of Goverment Ethics" (Hukumat Etika Idorasi) tashkiloti mavjud boʻlib, u davlat xizmatchilari faoliyatida manfaatlar toʻqnashuvi, sovgʻa olish, resurslardan notoʻgʻri foydalanish kabi holatlarni oldindan aniqlash boʻyicha siyosat yuritadi. Har bir federal idora oʻzining ichki xavf tahlilini olib boradi va natijalar asosida profilaktika choralarini ishlab chiqadi[1].

Avstraliya esa korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va boshqarish boʻyicha xalqaro miqyosda ilgʻor davlatlardan biridir. U yerda har bir davlat organi oʻzining "Corruption Prevention Strategy" (Korrupsiyaning oldini olish strategiyasi) asosida harakat qiladi. New South Wales Independent Commission Against Corruption (Yangi Janubiy Uels korrupsiyaga qarshi mustaqil komissiyasi) tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyaga koʻra, har bir tashkilotda xavflar aniqlanadi, ular ustuvorlik darajasiga koʻra baholanadi va maxsus boshqaruv rejasi tuziladi. Avstraliya tajribasi shuni koʻrsatadiki, xavflarni aniq mezonlar asosida baholash va ularga qarshi institutsional choralarni koʻrish orqali korrupsiyaning oldini olish mumkin[2].

Yevropada esa Estoniya tajribasi e'tiborga molikdir. Ushbu davlat korrupsiyaga qarshi raqamlashtirish siyosatini ustuvor yoʻnalishga aylantirgan. Estoniyada barcha davlat xizmatlari onlayn tizimga oʻtkazilgan boʻlib, inson aralashuvi kamaytirilgan. Bundan tashqari, davlat idoralari har yili korrupsiyaviy xavf tahlilini e'lon qiladi va bu boʻyicha jamoatchilikka hisobot beradi. Estoniya Korrupsiyaga qarshi Strategiyasida bu jarayon "integratsiyalashgan xavf boshqaruvi" deb atalib, unga jamoatchilik va fuqarolik jamiyati institutsiyalari ham faol jalb etiladi[3].

Ushbu tajribalar asosida Oʻzbekiston uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, har bir davlat organida muntazam tarzda korrupsiyaviy

[1] U.S. Office of Government Ethics (OGE), "Ethics Program," https://www.oge.gov
[2] New South Wales ICAC, "Risk Management and Corruption Prevention Strategy," https://www.icac.nsw.gov.au
[3] Government of Estonia, "Anti-Corruption Strategy 2021–2025" https://www.korruptsioon.ee/en/anti-corruption-strategy

xavf tahlilini o‘tkazish majburiy holga keltirilishi zarur; ikkinchidan, aniqlangan xavflar asosida maxsus boshqaruv rejasi tuzilib, u uchun mas’ullar belgilanishi lozim; uchinchidan, xavflarni kamaytirish uchun inson aralashuvini kamaytiruvchi raqamli yechimlar va jamoatchilik nazorati kengaytirilishi lozim. Bu orqali korrupsiyani faqat jazolovchi emas, balki uni oldini oluvchi tizim sifatida boshqaruv amaliyotiga singdirish mumkin bo‘ladi.

Ushbu ilmiy ishda ko‘rib chiqilgan nazariy va tashkiliy jihatlar korrupsiyaga qarshi kurashning faqat jazoga asoslangan yondashuvi yetarli emasligini, balki tizimli va oldini oluvchi chora-tadbirlar zarurligini ko‘rsatadi.

II BOB. DAVLAT BOSHQARUVIDA KORRUPSIYAVIY XAVFLARNI ANIQLASH, BAHOLASH VA BOSHQARISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH BOʻYICHA XALQARO STANDARLAR VA XORIJIY TAJRIBA

2.1. Davlat boshqaruvida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish tizimini rivojlantirish boʻyicha ilgʻor xorijiy tajribalar tahlili

Bugungi kunda zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilgʻor xorijiy tajribalar tahlili esa quyidagi sabablarga koʻra zarur va dolzarbdir:

Proaktiv yondashuv tamoyillari. Rivojlangan davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashishda reaktiv emas, balki proaktiv yondashuvni qoʻllaydilar. Bu yondashuv korrupsiya hodisalari sodir boʻlishidan oldin ularning xavflarini aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan. Xorijiy tajribalar shuni koʻrsatadiki, korrupsiyaviy xavflarni oldindan prognozlash va ularning oldini olish davlat byudjetini himoya qilish va jamiyatda ishonchni saqlash uchun eng samarali usuldir.

Risk-asoslangan boshqaruv tizimi. Ilgʻor davlatlar risk-asoslangan boshqaruv (risk-based management) tamoyilini qoʻllaydilar. Bu tizim har bir davlat idorasi va jarayoni uchun individual korrupsiya xavflarini aniqlash, ularni darajalar boʻyicha tasniflash va har bir xavf darajasiga mos choralarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Shunday qilib, cheklangan resurslar eng yuqori xavfli sohalarga yoʻnaltiriladi.

Albatta, xorijiy davlatlar tajribasida ham korrupsiyadan, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar jiddiy aziyat chekmoqda va ushbu mamlakatlar har yili korrupsiya natijasida oʻrtacha 1.26 trillion AQSh dollari miqdorida zarar koʻrmoqda. Bu pullarga 1,4 milliard qashshoq (kuniga 1,25 AQSh dollaridan kam daromadli odam)larni olti yil davomida moddiy taʼminlash mumkin. Korrupsiya

darajasi kam deb e'tirof etiladigan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ham korrupsiya natijasida yiliga 132 million AQSh dollari miqdorida zarar koʻrmoqda[1].

Transparency International tashkilotining 178 ta mamlakat boʻyicha e'lon qilgan hisobotiga koʻra, korrupsiya birinchi galda sogʻliqni saqlash, ta'lim va boshqa ijtimoiy xizmatlar tizimiga halokatli zarar yetkazadi va natijada har yili 140 mingdan ortiq bolaning oʻlimi bevosita korrupsiya tufayli kelib chiqadi[2].

Xullas, davlat organlarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash boʻyicha chora-tadbirlarni joriy etish, aholining korrupsiyaga qarshi qarashlarini shakllantirish boʻyicha xalqaro tajribalar hech qachon zarar qilmagan[3].

Bugungi kunda koʻplab davlatlarda, xususan Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH kabi rivojlangan mamlakatlarda "Davlat xizmati toʻgʻrisida"gi, "Davlat xizmatida jamoatchilik nazorati toʻgʻrisida"gi Qonunlar hamda davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, shuningdek sudyalarning xatti-harakat me'yorlarini tartibga soluvchi Axloq kodekslari mavjud ekanligini koʻrishimiz mumkin. E'tiborli jihat shundaki, mazkur normalar bilan davlat xizmatchilarining olishi mumkin boʻlgan sovgʻa yoki hadyalarning aniq miqdori ham belgilab qoʻyilgan. Masalan, AQSH da ushbu miqdor 20 AQSH dollarini, Fransiyada 35 yevro, Buyuk Britaniyada 140 funt, Rossiyada 3000 rubl etib belgilangan, Kanadada esa mansabdor shaxslarning pul koʻrinishidagi sovgʻalar qabul qilishi qat'iyan taqiqlanadi, Singapurda davlat boshqaruvida faoliyat koʻrsatuvchi mansabdor shaxslarning gonorar, zaym, qimmatli qogʻozlar kabi toʻlovlarni olishi ta'qiqlangan.

Avstraliya, Vengriya, Moldova, Ruminiya va AQShda esa korrupsiyaning oldini olish va aniqlashda halollikka tekshirish keng qoʻllaniladi. Unda sinovdan

---

[1] Corruption costs developing countries $1.26 trillion every ear – et half of EMEA think it's acceptable // https://www.weforum.org/agenda/2019/12/corruption-global-problem-statistics-cost/

[2] The ignored pandemic – How corruption in healthcare service delivery threatens Universal Health Coverage // https://ti-health.org/wp-content/uploads/2019/03/IgnoredPandemic-WEB-v3.pdf

[3] Abdumajitova, S. (2025). Korrupsiyaga qarshi kurash–bugungi kunning dolzarb muammosi. Education and research in the era of digital transformation, 1(2), 3297-3304-bet.

oʻtadigan shaxslarning axloqida korrupsiyaviy alomatlarni aniqlashga qaratilgan modellashtirilgan vaziyatdan foydalaniladi[1].

Shuni alohida ta’kidlab oʻtish joizki, Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuqoridagi xorij tajribasi vazirlik tizimida joriy qilingan boʻlib, unga koʻra xodimlarning fuqarolar, boshqa tashkilotlar xodimlari, jumladan turli joylar va xorijiy mamlakatlarga uyushtiriladigan xizmat safarlari davomida sovgʻalar olishi taqiqlandi. Xorijiy safarlar davomida olingan sovgʻalar, vazirlikka oʻtkaziladigan tartib joriy qilindi. Bundan tashqari, bugungi kunda ilgʻor xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish jarayonida qoʻllayotgan usullaridan biri bu davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi xarajatlarini deklaratsiya qilishning majburiy etib belgilanganligidir. Bundan koʻzlangan asosiy maqsad mansabdor shaxslarning noqonuniy daromad olishni oldini olish va manfaatlar toʻqnashuvini bartaraf etishdan iboratdir[2].

Korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan siyosat albatta mavjud qonunchilik bilan ham belgilanadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasida ham bu boradagi huquqiy asoslar ishlab chiqilgan. Biz esa quyida korrupsiyaga qarshi kurashda yaxshi natijalarga erishib kelayotgan mamlakatlarning huquqiy asoslari va vakolatli organlarini tahlil qilib oʻtsak.

Amerika Qoʻshma Shtatlari. Asosiy qonun hujjatlari bular — AQSh kodeksi 18-sahifasida belgilangan boʻlib 11-bobida Poraxoʻrlik va manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisida, 31-bobida Talon-toroj va oʻzlashtirish, 96-bobida esa Reket va korrupsiyaga aloqador tashkilotlar toʻgʻrisida normalar mavjud[3]. Shu bilan birga 1978 yildagi “Hukumatda axloq” qonuni[4], “Hukumat etikasi idorasi”

---

1 Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas’ul muharrir: A.Sh. Bekmurodov: – Toshkent: “Akademiya”, 2022. 283-bet.

2 Iskandarov, B. (2025). Oʻzbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari. Modern Science and Research, 4(3), 1326–1331. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/74033

3 https://uscode.house.gov

4 https://www.govinfo.gov/app/details/USCODE-2023-title5/USCODE-2023-title5-app-ethicsing

to‘g‘risidagi qonun[1], AQSh kodeksining 15-sahifasida Xorijdagi korrupsiyaga oid amaliyotlarga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qoidalar hisoblanadi[2].

Korrupsiyaga qarshi kurashish organlari esa Adliya vazirligi (Department of Justice); Qimmatli qog‘ozlar va birja komissiyasi (Securities and Exchange Commission); Hukumat etika xizmati (Office of Government Ethics); Etika bo‘yicha idoralararo kengash (Interagency Ethics Council); Xolislik va samaradorlik bo‘yicha bosh inspektorlar kengashi (The Council of the Inspectors General on Integrity and Efficiency) hisoblanadi.

AQSHda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy qonuni — 1977 yildagi Xorijdagi korrupsiyaga oid amaliyotlarga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qoidalar bo‘lib, u xorijiy amaldorlarni pora bilan ta’minlashni taqiqlaydi.

Shuningdek, AQSH Adliya vazirligi va Qimmatli qog‘ozlar va birjalar komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan yo‘riqnomalarda tashkilotlarga korrupsiyaviy xavflarni baholash va ularni kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Bugungi kunda AQShda korrupsiyaga qarshi kurashish vazifasini amalga oshiruvchi dunyodagi eng kuchli huquqni muhofaza qilish tizimlaridan biri faoliyat yuritmoqda. AQShning uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashda milliy strategiyasining vazifalari quyidagilarni nazarda tutadi:

- uyushgan tergov nazariyasiga asoslangan ko‘p qirrali yondashuvdan foydalanish;

- razvedka xususiyatiga ega bo‘lgan milliy (xalqaro) operativ-qidiruv bazasini kengaytirish;

- maqsadli guruh konsepsiyasidan foydalanish asosida samarali va muvofiqlashtirilgan tekshiruvlarni o‘tkazish;

- RICO qonuni fuqarolik qoidalaridan jinoiy tashkilotlarning iqtisodiy asoslarini buzish uchun keng qamrovli foydalanish;

---

[1] https://www.govinfo.gov/app/details/CFR-2024-title5-vol3/CFR-2024-title5-vol3-chapXVI

[2] Anti-Bribery and Books & Records Provisions of The Foreign Corrupt Practices Act. https://www.justice.gov/sites/default/files/criminal-fraud/legacy/2012/11/14/fcpa-english.pdf

- milliy va xorijiy huquqni muhofaza qilish organlariga koʻmaklashish[1].

Ushbu strategiya 2021-yilda Prezident Bayden korrupsiyaga qarshi kurashni milliy xavfsizlik masalasi deb eʼlon qilgandan soʻng ishlab chiqildi.

Buyuk Britaniya. Asosiy qonun hujjatlari "Poraxoʻrlik toʻgʻrisida"gi qonun, "Jamoat manfaatiga oid axborotlarni oshkor qilish toʻgʻrisida"gi qonun, Vazirlaro kodeksi, Davlat xizmatini boshqarish kodeksi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish organlari - Jiddiy firibgarliklarga qarshi kurashish boʻlimi (Serious Fraud Office), Ommaviy sohalar boʻyicha standartlar qoʻmitasi (Committee on Standards in Public Life), Ishbilarmonlarni tayinlash boʻyicha maslahat qoʻmitasi (The Advisory Committee on Business Appointments), Buyuk Britaniya Jinoyatchilikka qarshi kurashish milliy Agentligining Korrupsiyaga qarshi kurash boʻyicha xalqaro guruhi (International Corruption Unit of the National Crime Agency) hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada davlat sektorida korrupsiya koʻpincha davlat xizmatchilarining oʻz lavozim vakolatlarini shaxsiy manfaatlariga xizmat qilish uchun suiisteʼmol qilishi orqali namoyon boʻladi. Transparency International tashkiloti tomonidan 2021-yilda eʼlon qilingan Korrupsiyani idrok etish indeksida (CPI) Buyuk Britaniya nisbatan toza davlat sifatida 78 ball bilan baholangan (0 – "juda korrupsiyalashgan", 100 – "toza"). Bu natijaga koʻra mamlakat 180 ta davlat ichida 11-oʻrinni egallagan.

Buyuk Britaniya korrupsiyani qabul qilish indeksida uzoq vaqtdan beri yuqori reytingni saqlab kelgan boʻlsa-da, jamoatchilikning noroziligi saqlanib qolmoqda. Bu ommaviy axborot vositalari tomonidan ham tanqid qilingan[2]. Tanqidlar asosan, Buyuk Britaniyaning korrupsiya reytingi boʻyicha birinchi 10 talikdan tushib ketgani bilan bogʻliq[3][4].

Shunga qaramay, Transparency Internationalning oʻz rasmiy manbalarida parlament, sogʻliqni saqlash tizimi (NHS) va boshqa muhim sohalarda aniqlangan

---

[1] Попов В. И. Противодействие организованной преступности, коррупции, терроризму в России и за рубежом. – М., 2008. – С. 459-460.
[2] Monbiot, George. "If you think the UK isn't corrupt, you haven't looked hard enough" (en). *The Guardian*.
[3] Binham, Caroline. "UK drops out of top 10 in global anti-corruption rankings". Financial Times.
[4] Millard, Rachel. "UK takes one step down in global corruption rankings" (en-GB). The Telegraph.

real korrupsion holatlar haqida kengroq va tanqidiy axborot berilgan. Bu holat, jamoatchilik orasida davlat idoralariga bo‘lgan ishonchning susayishiga ham olib kelgan.

Buyuk Britaniyada korrupsiyaga qarshi kurashishda bir qator qonunlar amal qilmoqda. Ular orasida eng asosiy va dolzarb huquqiy hujjat bu — 2010-yilda qabul qilingan “Pora berish to‘g‘risida”gi qonun hisoblanadi. Mazkur qonun pora berish yoki olish jinoyat deb qaralgan holatlarda, jinoyat sodir etilgan sektor — davlatmi yoki xususiy — bo‘lishidan qat’i nazar, bir xil javobgarlik choralarini nazarda tutadi.

Shuningdek, so‘nggi yillarda korrupsiya reytingida Buyuk Britaniyaning avvalgi yuqori o‘rinlardan pastga tushgani jurnalistlar va fuqarolik jamiyati tomonidan tanqid ostiga olingan. Bu esa davlat organlari faoliyatida halollik va shaffoflikni ta’minlash borasidagi sa’y-harakatlarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Germaniya. Asosiy qonun hujjatlari. Jinoyat kodeksi[1]: 108e, 108f, 263, 265c-265e, 298-301, 331-337-moddalar, “Xalqaro biznes operatsiyalarida xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rligiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun[2], “Hududlarda davlat xizmatlari to‘g‘risida”gi qonun, “Federal davlat xizmati to‘g‘risida”gi qonun[3], “Xabar beruvchilarni himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun, “Normativ huquqbuzarliklar to‘g‘risida”gi qonuni[4] 30-bo‘limi – Yuridik shaxslar va shaxslar birlashmalariga nisbatan jarimalar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish organlari. Politsiya federal boshqarmasi (Bundeskriminalamt).

Germaniya huquqshunoslarining fikriga ko‘ra, mansabdorlik jinoyatlari nafaqat subyekt – mansabdor shaxsning belgisi bo‘yicha, balki himoya qilinadigan obyekt – davlat apparati normal amal qilishi bo‘yicha ham birlashtirilgan[5].

---

[1] https://www.gesetze-im-internet.de/stgb/

[2] *Gesetz zu dem Übereinkommen vom 17. Dezember 1997 über die Bekämpfung der* Bestechung ausländischer Amtsträger im internationalen Geschäftsverkehr. https://www.gesetze-im-internet.de/intbestg/

[3] https://www.gesetze-im-internet.de/bbg_2009/BJNR016010009.html

[4] https://www.gesetze-im-internet.de/hinschg/

[5] Ананиан, Л. Л. (1995). 95. 02. 030. Ответственность за должностные преступления в зарубежных странах /решетников Ф. М. , Игнатова М. А. , меньших А. А. , Апарова Т. В. ; отв. Ред. Решетников Ф. М. —

Germaniyada korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshdi. Bunga politsiya va prokuratura xodimlari shtat birliklarining oshirilishi, ishonch raqamlari orqali anonim xabarlarni berish tartibining joriy etilishi, jinoyat va soliq politsiyasi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va butun Yevropa Kengashi bo'ylab hamkorlikning kengayganligi yordam berdi. Samaradorlikni ta'minlashda ilm-fanning ham jiddiy ta'siri bo'ldi, xususan, olimlar tomonidan o'tkaziladigan ilmiy va amaliy tadqiqotlar orqali korrupsiyani keltirib chiqaradigan shart-sharoitlar va poraxo'rlarning pora olish va berish usullari bo'yicha ham katta tajriba to'plandi. Germaniyada davlat va mahalliy boshqaruvda korrupsiya holatlari (jami 35 foiz) xususiy biznesga qaraganda (56 foiz) ancha kam. Huquq-tartibot va 291 sud organlari atigi 8 foizni, turli darajadagi siyosatchilar esa, atigi 1 foizni tashkil etadi[1].

Daniya. Asosiy qonun hujjatlari. Jinoyat kodeksining[2] 122, 144, 145, 151, 152, 155, 278, 280, 290, 304a-moddalari. Xulq-atvor kodeksi VII: Markaziy hukumat amaldorlarining yettita asosiy majburiyatlari[3], 2014-yil 22-apreldagi №433-sonli "Davlat boshqaruvi to'g'risida"gi qonun[4], 2021-yil 29-iyundagi №1436-sonli "Axborot beruvchilarni himoya qilish to'g'risida"gi qonuni[5].

Korrupsiyaga qarshi kurashish organlari Adliya vazirligi (Justitsministeriet) va Iqtisodiy va xalqaro jinoyatlar bo'yicha maxsus prokuror hisoblanadi.

Daniya tajribasiga ko'ra, 2002-yilda qabul qilingan "Korrupsiya to'g'risida" gi Daniya Qonuni korrupsiyaning oldini olish chora-tadbirlarining ustuvorligini belgilovchi, ta'sirchan ogohlantiruvchi xususiyatga ega bo'lgan asosiy normativ-huquqiy hujjatdir. Xususan, ushbu qonunning qoidalari Daniya hukumati

---

М. : юрид. Лит. , 1994. — 77 с. Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 4, Государство и право: Реферативный журнал, (2), 106-110.

1 Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas'ul muharrir: A.Sh. Bekmurodov: – Toshkent: "Akademiya", 2022. 290-291-betlar.

2 *Straffeloven: § 122, 144, 145, 280, 290, 290a, 304a, 5. kapitel – Strafansvar for juridiske personer.* https://www.retsinformation.dk/eli/lta/2024/1145

3 *Syv centrale pligter for embedsmænd i centraladministrationen — Kodex VII.* https://medst.dk/arbejdsomraader/hr/retningslinjer-for-embedsmaend/kodex-vii-de-syv-centrale-pligter/

4 *Forvaltningsloven LBK nr 433 af 22/04/2014.* https://www.retsinformation.dk/eli/lta/2014/433

5 *Lov om beskyttelse af whistleblowere LOV nr 1436 af 29/06/2021.* https://www.retsinformation.dk/eli/lta/2021/1436#:~:text=En%20whistleblower%20m%C3%A5%20ikke%20uds%C3%A6ttes,overensstemmelse%20med%20lovens%20regler%20herom.

vakillarini har yili o‘z mol-mulki va shaxsiy daromadlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni nashr etishga, xorijiy kompaniyalarda aksiyalarga ega bo‘lishni taqiqlashga majbur qiladi, bu ularning boshqaruv faoliyatining oshkoraligi va shaffofligini, korrupsion holatlarini oldini olishga yordam beradi. Korrupsiyani oldini olishning muhim omili shundaki, mamlakatda davlat xizmatchilari yuqori darajadagi ijtimoiy muhofazaga ega: ular bepul tibbiy xizmat va ta’lim olish huquqiga va ijtimoiy kafolatlarga tayanishlari mumkin, bu esa korrupsion harakatlar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi[1]. Daniya korrupsiya darajasi past bo‘lgan davlatlardan biri hisoblanadi.

Yaponiya. Asosiy qonunlari Jinoyat kodeksining[2] 193, 197-198-moddalari, 1947 yil 21 oktyabrdagi — Davlat xizmati to‘g‘risidagi qonuni[3], 1993 yil 19 maydagi — Insofsiz raqobatning oldini olish to‘g‘risidagi qonun, 1999 yil 13 avgustdagi — Davlat xizmati etikasi to‘g‘risidagi qonuni, 2004-yil 18-iyundagi — Arizachilarni himoya qilish to‘g‘risidagi, Hukumatning 2000 yildagi — Milliy fuqarolik xizmatining etika kodeksi to‘g‘risidagi qarori. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi tashkilot esa Bosh prokuratura hisoblanadi.

Yaponiyada korrupsiyaga qarshi kurashuvchi zamonaviy qonunchilik bazasi Insofsiz raqobatning oldini olish to‘g‘risidagi qonun va Yaponiyaning Jinoyat kodeksidan iborat. Birinchisi korrupsiya va poraxo‘rlikni qamrab oladigan taqiqni belgilaydi, ikkinchisi esa davlat mansabdor shaxslari tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun jazoni nazarda tutadi. Yaponiya, shuningdek, shaffoflik va ma’lumot beruvchilarni himoya qilish mexanizmlarini o‘rnatdi[4].

Yaponiya hukumati islohotlar va qonunlar orqali Yaponiyadagi korrupsiyaga qarshi choralar ko‘rdi , ammo bu mamlakat uchun jiddiy tashvish

---

[1] Iskandarov, B. (2025). O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari. Modern Science and Research, 4(3), 1326–1331. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/74033

[2] 明治四十年法律第四十五号刑法: 記事. https://laws.e-gov.go.jp/law/140AC0000000045

[3] 国家公務員法— 昭和二十二年法律第百二十号 . https://laws.e-gov.go.jp/law/322AC0000000120

[4] Oyamada, E. (2015), “Anti-corruption measures the Japanese way: prevention matters”, Asian Education and Development Studies, Vol. 4 No. 1, 24-50-betlar

boʻlib qolmoqda. Yaponiya oʻz tarixi davomida katta korrupsiya mojarolarini koʻrgan[1].

Yaponiya, shuningdek, 2000-yillardagi janjallardan soʻng, tenderlarni soxtalashtirishga qarshi qonunlariga oʻzgartirishlar kiritdi va kuchaytirdi. Hisobotlar shuni koʻrsatdiki, 2009-yilga kelib, bu islohotlar samarali boʻldi va raqobatdosh boʻlmagan savdolarning sezilarli darajada pasayishiga olib keldi[2].

Birlashgan Arab Amirliklari. Asosiy qonun hujjatlari. Jinoyat kodeksi 66-modda va 275–287-moddalari[3], 2022-yildagi “Federal hukumatda inson resurslari toʻgʻrisida” 49-sonli qonun[4], Vazirlar Mahkamasining 2018-yilgi “Federal hukumatda inson resurslari toʻgʻrisidagi Qonunni qoʻllash boʻyicha ijroiy qoidalarni tasdiqlash haqida” qarori[5].

Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlari. Abu-Dabi korrupsiyaga qarshi kurashish boʻlimi (Abu Dhabi Accountability Authority) va Dubay Iqtisodiy xavfsizlik markazi (Economic Security of Dubai).

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) mintaqadagi boshqa davlatlarga nisbatan nisbatan toza va tartibli davlat sektoriga ega mamlakat sifatida e’tirof etiladi. Arabiston koʻrfazida joylashgan ushbu federativ tuzilma, Transparency International tomonidan 2024-yilgi Korrupsiyani idrok etish indeksida 180 mamlakat orasida 23-oʻrinni egalladi.

Shunga qaramay, soʻnggi yillarda mamlakatdagi ayrim sohalarda, xususan, davlatga qarashli kompaniyalar faoliyatida, davlat xaridlari tizimida va koʻchmas mulk bozoridagi noqonuniy moliyaviy oqimlar bilan bogʻliq korrupsiyaviy holatlar kuzatilmoqda. Ushbu muammolar, BAAda korrupsiyaga qarshi kurashda yanada izchil va tizimli yondashuv zarurligini koʻrsatmoqda.

[1] Nathan, Andrew J. (2018-10-16). “Political Corruption and Scandals in Japan”. Foreign Affairs. Vol. 97, no. 6. ISSN 0015-7120. Retrieved 2024-09-0. 85-b.
[2] Izumi, Junichi. “Contracting Procedures of the Japanese Government” (PDF). 国連アジア極東犯罪防止研修所 (UNAFEI). unafei.or.jp. 132-b.
[3] مرسوم بقانون اتحادي بإصدار قانون الجرائم والعقوبات https://uaelegislation.gov.ae/ar/legislations/1529
[4] https://www.fahr.gov.ae/en/legislations-guides/the-law-regulations/human-resources-law-in-the-federal-government/
[5] Cabinet Resolution of The Executive Regulation of Federal Decree by Law Concerning Human Resources in Federal Government. https://uaelegislation.gov.ae/en/legislations/2115

Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi qonunchilik bazasi BAA Jinoyat kodeksini oʻz ichiga oladi, unda korrupsiyada aybdor deb topilgan davlat amaldorlari uchun qattiq jazo nazarda tutilgan. Masalan, poraxoʻrlik Jinoyat kodeksida aniq belgilanmagan boʻlsa-da, u 234-239-moddalarda jinoiy hisoblanadi va ayrim amirliklarning tegishli jinoiy kodekslarida xuddi shunday koʻrib chiqiladi. 2021-yilda ushbu qonun Birlashgan Arab Amirliklarining Yangi Federal Jinoyat kodeksining kiritilishi bilan yangilandi, unda 2021-yildagi 31-sonli Federal qonun — 2022-yildagi 36-sonli qonun orqali oʻzgartirilgan. Bu poraxoʻrlik va korrupsiyaga qarshi kurashuvchi asosiy qonunchilikdir[1].

BAAda jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi qonun ham mavjud boʻlib, u 2002 yil may oyida ratifikatsiya qilingan. Ushbu qonunchilik moliya institutlari tomonidan majburiyatlarni taqdim etish madaniyatini yaratdi. Qonun, shuningdek, Markaziy bankka oldindan qonuniy ruxsatsiz shubhali hisoblarni muzlatish huquqini berdi[2].

Birlashgan Arab Amirliklari hukumati davlat va xususiy sektorda korrupsiyaga nisbatan toqat qilmaslik siyosatini qabul qildi. Ushbu siyosat, boshqa antikorrupsiya choralari qatorida, Arab bahoridan keyin korrupsiyaga qarshi kurashish uchun Fors koʻrfazi mamlakatlari oʻrtasida birgalikdagi saʼy-harakatlarning bir qismi sifatida joriy etilgan[3]. BAA oʻzining Hisobdorlik organini (BAEA) yaratdi, unga davlat mablagʻlarini himoya qilish, uning qonuniy taqsimlanishi va sarflanishini taʼminlash vazifasi yuklangan. Bu agentlik Mudofaa vazirligi tizimidagi davlat sektoridagi korrupsiya holatlarini tekshirish bilan shugʻullanuvchi agentlik boʻlgan Korrupsiyaga qarshi kurash boʻlimini kengaytirdi[4].

[1] Daye, Ghassan El (2023-07-04). “United Arab Emirates country risk report”. تقرير المخاطر في دولة الإمارات العربية المتحدة .GAN Integrity.
[2] Nicholls QC, Colin et al. (2011). Corruption and Misuse of Public Office. OUP Oxford. ISBN 978-0-19-957727-9. 673-bet.
[3] Kubbe, Ina; Varraich, Aiysha (2019). Corruption and Informal Practices in the Middle East and North Africa. Routledge. ISBN 978-1-000-76061-3. 94-b.
[4] Zhang, Yahong; Lavena, Cecilia (2015). Government Anti-Corruption Strategies: A Cross-Cultural Perspective. CRC Press. ISBN 978-1-4987-1202-6. 36-b.

Singapur. Asosiy qonun hujjatlari. 1960 yildagi "Korrupsiyaning oldini olish toʻgʻrisida"gi qonun (Prevention of Corruption Act), 1993-yildagi "Korrupsiya, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi va boshqa ogʻir jinoyatlarga qarshi kurashish toʻgʻrisida"gi qonun (Corruption, Drug Trafficking and Other Serious Crimes Act).

Korrupsiyaga qarshi kurashish organlari. Korrupsiya jinoyatlarini tergov qilish byurosi (Corrupt Practices Investigation Bureau).

Singapur Respublikasi odatda dunyodagi eng kam korrupsiyalashgan davlatlardan biri sifatida qabul qilinadi. Ishlar asosan Singapurdagi korrupsiya amaliyotlarini tergov qilish byurosi tomonidan koʻrib chiqiladi, u davlat va xususiy sektordagi korrupsiyani tekshiradi va ta'qib qiladi[1].

Transparency International tomonidan oʻtkazilgan soʻrov natijalariga koʻra, Singapur aholisi orasida davlat amaldorlari yoki muassasalari tomonidan sodir etilgan korrupsiya holatlari nihoyatda kam uchraydigan hodisa sifatida baholanadi. 2020-yilda Transparency International tashkiloti Singapur davlat sektorini dunyodagi eng kam korrupsiyalashgan toʻrtinchi va Osiyodagi eng shaffof davlat sektori deb e'lon qilgan[2].

Yuqoridagi xorijiy tajribalarni tahlil qilib quyidagilarni amaliyotga taklif qilishimiz mumkin:

Birinchi taklif. Milliy hisobot institutini yoʻlga qoʻyish. Davlat idoralari va mahalliy hokimliklar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash holatini yorituvchi maxsus Milliy ma'ruzani tayyorlash amaliyotini joriy etish zarur. Bu boʻyicha hisobotning mazmuni, shakli, e'lon qilish mexanizmi hamda asosiy koʻrsatkichlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi lozim. Shu orqali Milliy ma'ruzada aks ettirilishi shart boʻlgan axborotlar va ular asosida amalga oshirilishi kerak boʻlgan aniq chora-tadbirlar belgilanadi.

Bu model xorijiy mamlakatlarda, xususan AQSH, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya tajribasida muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda. Masalan, AQSHda

[1] Chong, Elena. "Ex-police officer charged with warning dance clubs on raids".
[2] Ho, Olivia. "Singapore ranked fourth least corrupt country in the world, cleanest in Asia". Straits Times.

har bir federal agentlik yillik “Agency Financial Report (AFR)” hamda “Annual Performance Report” tayyorlaydi. Bu hujjatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar toʻqnashuvini boshqarish va etika tamoyillariga rioya etilishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Buyuk Britaniyada esa davlat idoralari tomonidan “Transparency Report” va “Annual Governance Statement” tarzidagi hisobotlar taqdim etiladi. Janubiy Koreyada esa har bir davlat tashkiloti yil davomida “Integrity Assessment Report” shaklida oʻz faoliyatining halollik darajasini baholaydi.

Ikkinchi taklif. Davlat xizmatchilarining axloqiy me’yorlarini normativ asosda belgilash. Davlat xizmatida faoliyat olib borayotgan xodimlar uchun yagona Axloqiy kodeks ishlab chiqilishi lozim. Ushbu kodeksda xodimlar uchun taqiqlangan xatti-harakatlar, kasbiy faoliyatdagi cheklovlar, rioya qilinishi majburiy boʻlgan axloqiy normalar, shuningdek, ruxsat etilgan harakatlar aniq va ravshan ifoda etilishi kerak. Bu borada Gruziya tajribasi e’tiborga molik, chunki u erda “Davlat organlarida axloq va xulq-atvorning umumiy qoidalarini belgilash toʻgʻrisida”gi qonun amalda boʻlib, ushbu qonunni milliy qonunchilikka moslashtirib joriy etish orqali davlat xizmatidagi halollik va mas’uliyatni kuchaytirish mumkin.

Uchinchi taklif. Milliy metodologiyani ishlab chiqish va huquqiy bazaga kiritish. Davlat boshqaruvi doirasida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, ularni baholash va monitoring qilish tizimini yoʻlga qoʻyish uchun yagona, barcha davlat organlariga tatbiq etilishi mumkin boʻlgan metodikani ishlab chiqish talab etiladi. Bu metodika quyidagi tarkibiy qismlarni oʻz ichiga oladi:

Xavf xaritasi (risk map): idora va lavozim kesimida ehtimoliy korrupsiyaviy tahdidlarni aniqlash;

Xavf intensivligi matritsasi (impact-likelihood matrix): xavf ehtimolligi va u bilan bogʻliq oqibatlarning ogʻirligini aniqlash;

Kuzatuv reestri: aniqlangan xavflar, ularni bartaraf etish boʻyicha choralar va mas’ul shaxslar aks ettirilgan doimiy monitoring hujjati.

Mazkur yondashuv Janubiy Koreya amaliyotida oʻzini toʻliq oqlagan. Jumladan, Integrity Assessment System doirasida davlat idoralari yil davomida mavjud korrupsiyaviy xavflarni aniqlab, ularni tahlil qiladi va baholash natijalari asosida ochiq hisobotlar tayyorlaydi. Bu natijalar davlat budjeti shakllanishida ham hisobga olinadi.

Toʻrtinchi taklif. Korrupsiyaviy xavfni kamaytirishga qaratilgan majburiy tartiblarni qonuniylashtirish. Korrupsiyaga olib keluvchi omillarni bartaraf etishga xizmat qiladigan quyidagi protseduralarni qonunchilik darajasida mustahkamlash zarur:

- Rotatsiya tizimi: korrupsiyaviy xavfi yuqori boʻlgan lavozimlarda (masalan, tenderlar, soliq, bojxona, litsenziyalash, er ajratish, subsidiyalar) uch yildan ortiq ishlashga cheklov joriy etish;
- Manfaatlar toʻqnashuvini deklaratsiyalash: rahbar xodimlar tomonidan qarindoshlik, sobiq ish joylari yoki shaxsiy manfaatlar bilan bogʻliq holatlarni maxsus deklaratsiya orqali ochiqlash;
- Yuqori xavfli qarorlar boʻyicha jamoatchilik ekspertizasini joriy qilish: davlat xaridlari, xususiylashtirish, subsidiya va grant ajratish sohalarida ekspertiza oʻtkazishni majburiy tartibga kiritish.

Mazkur takliflar Italiya tajribasiga asoslangan boʻlib, bu mamlakatda ANAC (National Anti-Corruption Authority) har uch yilda barcha davlat organlaridan korrupsiyani oldini olish hamda shaffoflikni taʼminlash strategiyasini ishlab chiqishni va amalga oshirishni talab qiladi. Ushbu strategiyada xavf zonalari aniq belgilanib, jamoatchilik ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tajribasidan bizga maʼlumki, korrupsiyalashgan mamlakatlarning iqtisodiyoti toʻgʻri ishlay olmasligi, korrupsiya tabiiy qonuniyatlarning erkin ishlashiga xalaqit berishi va mamlakat iqtisodining gullab-yashnashiga jiddiy toʻsiqdir[1].

---

[1] Muhammadqulov, B. (2025). Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimida xorijiy davlatlar tajribasi tajibasi. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(11), 64-67.

Bugungi kunda esa korrupsiyaga qarshi kurashishning eng asosiy usullaridan biri davlat boshqaruvida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish tizimini rivojlantirish hisoblanadi. Bu bo'yicha esa xalqaro standartlar va xorijiy tajriba o'rganish orqali qator yutuqlarga erishish mumkin.

2.2. Korrupsiyaviy xavflarni baholashga qaratilgan ISO 31000 va 37001 xalqaro standartlari

So'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida xalqaro standartlarni amaliyotga tatbiq etish yo'lida qator muhim tashabbuslar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha muhim vakolatlar yuklatildi. Jumladan, davlat buyurtmachilariga ISO 37001 standarti talablarini qo'llash majburiyati belgilab qo'yildi. Bu esa, korrupsiyaviy xatarlarga qarshi tizimli yondashuvni shakllantirish va xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish imkonini yaratmoqda.

ISO 37001 xalqaro standarti tashkilotlarga korrupsiyaning oldini olish, aniqlash va unga qarshi kurashish tizimini yaratish imkonini beradi. Ushbu standartda siyosiy majburiyatlar, rahbariyatning roli, xodimlarni o'qitish, xavflarni baholash, monitoring va audit kabi elementlar belgilab qo'yilgan[1].

ISO 37001 tashkilot ichida shaffoflik va javobgarlikni oshirishda muhim vosita sifatida baholanadi. Bu standart nafaqat tashkilotning ichki boshqaruvini, balki uning tashqi imijini ham mustahkamlaydi[2].

ISO 37001 standarti dunyo miqyosida davlat idoralari, xususiy kompaniyalar va notijorat tashkilotlar tomonidan keng qo'llanilmoqda. Ular orasida bank-moliya sektori, energetika, sog'liqni saqlash, qurilish, logistika va boshqa sohalar mavjud. Ayniqsa, xalqaro tender va davlat xaridlari jarayonida

[1] ISO 37001: Anti-bribery management systems – Requirements with guidance for use, ISO, 2016.
[2] Field, A. (2017). ISO 37001: An introduction to anti-bribery management systems. IT Governance Ltd.

ushbu standart boʻyicha sertifikatga ega boʻlish tashkilot obroʻsi va ishonchliligining muhim koʻrsatkichiga aylangan.

ISO 37001 standarti Malayziyada Bosh vazir Tun Dr. Mahathir Mohamad boshchiligidagi hukumat tomonidan joriy qilingan. Yangi tizim ham davlat sektorida, ham xususiy sektorda ijobiy natija bergan. Bu haqda Malayziyaning korrupsiyaga qarshi kurash boʻyicha sobiq rahbari "Xalqning, hukumatning korrupsiyaga qarshi jiddiy choralar koʻrishi 2016 yildagi 59,8 foizdan 70,8 foizgacha koʻtarildi" degan edi. Shuningdek, u Malayziya bir qator muhim xalqaro tadqiqotlar va indekslar boʻyicha oʻz koʻrsatkichlarining yaxshilanishini koʻrsatganini ta'kidlagan[1].

Ushbu standart xalqaro standarti dunyo boʻyicha tobora koʻproq davlatlar va yirik tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Xususan, bu standartni Malayziyadan tashqari yana bir qator mamlakatlarning milliy standartlashtirish organlari oʻz milliy amaliyotlariga qabul qilishgan. Masalan, Peru, Singapur va Xitoy (Shenzhen Standartlar va Texnologiyalar Instituti) ushbu standartni korrupsiyaga qarshi kurashda qoʻllab-quvvatlab, uni oʻzlarining ichki tizimlariga integratsiya qilmoqda.

Italiyada ISO 37001 standarti boʻyicha akkreditatsiya jarayonlari Accredia tomonidan ishlab chiqilgan maxsus sxema orqali amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyada esa UKAS (United Kingdom Accreditation Service) ushbu standarti asosida akkreditatsiya mexanizmini ishlab chiqish uchun alohida dastur boshlagan. Birlashgan Arab Amirliklarida ham Xalqaro Akkreditatsiya Markazi tomonidan ISO 37001 boʻyicha akkreditatsiya sxemasini ishlab chiqish ustida faol ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, jahonda taniqli kompaniyalar, jumladan Microsoft va Walmart ham oʻzlarining korporativ amaliyotida korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini joriy etish maqsadida ISO 37001 sertifikatiga ega boʻlish niyatlarini bildirganlar.

---

[1] ISO 37001:2016: Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi. https://zamin.uz/uz/jamiyat/77215-iso-370012016-korrupcijaga-arshi-bosharuv-tizimi.html

Bugungi kunda ushbu standart korrupsiyani aniqlash, oldini olish va unga qarshi kurashish borasida xalqaro mezonlarga mos yondashuvni ta'minlab, hali ham amaldagi eng dolzarb versiya hisoblanadi.

ISO 37001 standarti tashkilotlarga quyidagi asosiy yo'nalishlarda tizimli yordam beradi:

- Korrupsiyani aniqlash va baholash – tashkilot faoliyatida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va ularning miqyosini baholash;
- Profilaktik choralar ishlab chiqish – korrupsiyaga olib keluvchi omillarni kamaytirish, siyosiy va boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirish;
- Kuzatuv va monitoring – tizim doirasida xavflarni doimiy nazorat qilish va baholash tizimini shakllantirish;
- Ichki va tashqi auditlar – tashkilot faoliyati korrupsiyaviy xavfga yo'l qo'ymaslik mezonlari asosida tekshirib borilishi;
- Xodimlarni o'qitish va axloqiy normalarni targ'ib qilish – korrupsiyaga qarshi madaniyatni mustahkamlash.

O'zbekiston Respublikasida ham korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro standartlarni tatbiq etish yo'lida qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi[1] PF-6013-sonli farmoni bilan davlat xaridlari sohasida ISO 37001 standartini qo'llash majburiyati belgilangan. Bu esa ushbu standartning milliy siyosatda ham dolzarb va amaliy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

ISO 37001 Standartning asosiy talab va komponentlari. Korrupsiyaga qarshi siyosat - har bir tashkilotda korrupsiyaga qarshi qat'iy siyosat bo'lishi zarur. Bu siyosat aniq, tushunarli va barcha xodimlar uchun majburiy bo'lishi kerak. Siyosatda korrupsiyaning barcha shakllariga nisbatan nol tolerantlik tamoyili

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2023-yil 27-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-sonli farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-4875784

ko'rsatilishi, qonuniy va noqonuniy to'lovlar o'rtasidagi farq aniq belgilanishi, xodimlarning huquq va majburiyatlari batafsil bayon etilishi zarur.

Rahbariyatning roli - yuqori rahbariyatning shaxsiy na'munasi, siyosatni doimiy qo'llab-quvvatlashi va resurs ajratishi talab qilinadi. Rahbariyat korrupsiyaga qarshi siyosatni shaxsiy na'munasi bilan qo'llab-quvvatlashi, zarur resurslar va vakolatlarni ta'minlashi, korrupsiyaga qarshi madaniyatni rivojlantirishi, muntazam ravishda tizimning ishlashini nazorat qilishi va xodimlarni halol xatti-harakatlarga rag'batlantirishi zarur.

Xavflarni tahlil qilish - korrupsiyaviy xavflarni baholash va ularni kamaytirishga qaratilgan choralarni belgilash jarayonini o'z ichiga oladi. Bu jarayon korrupsiya xavflarini aniqlash va tasniflash, xavflarning ehtimolligi va ta'sirini baholash, yuqori xavfli sohalarni belgilash, xavflarni kamaytirish choralarini ishlab chiqish va muntazam ravishda xavflarni qayta baholash bosqichlarini qamrab oladi.

Kadrlar siyosati - ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash va rag'batlantirishda halollik mezonlarini kiritishni nazarda tutadi. Ishga qabul qilish jarayonida nomzodlarning halollik darajasini tekshirish, tegishli pozitsiyalar uchun qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish, xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi holatlarini nazorat qilish, halol xatti-harakatlarga asoslangan baholash tizimi va korrupsiya holatlarida qat'iy intizomiy choralar qo'llash amalga oshiriladi.

O'zbekistonda joriy etish ahamiyati. ISO 37001 standardining joriy etilishi quyidagilarga erishishga xizmat qiladi: korrupsiyaning tizimli sabablarini kamaytirish, davlat organlarida shaffoflik va javobgarlikni oshirish, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, xalqaro reytinglarda O'zbekiston o'rnini yaxshilash va xalqaro sarmoyadorlar uchun ijobiy investitsion muhit yaratish.

Joriy etish mexanizmlari. *Birinchi mexanizm* ISO 37001 tamoyillarini milliy qonunchilikka integratsiyalashdir. Bu jarayonda mavjud qonunlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish, korrupsiyaga qarshi yangi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish,

xalqaro standartlar bilan uyg'unlik ta'minlash va huquqiy bazaning izchilligini ta'minlash amalga oshiriladi.

Ikkinchi mexanizm har bir tashkilotda korrupsiyaga qarshi ichki siyosatni ishlab chiqishdir. Bu jarayonda tashkilot xususiyatlariga mos keluvchi siyosat ishlab chiqish, korrupsiya xavflarini baholash, ichki nazorat tizimini yaratish, xodimlar uchun aniq qoidalar belgilash va intizomiy javobgarlik choralarini kiritish amalga oshiriladi.

Uchinchi mexanizm tegishli vazirlik va idoralar tomonidan yo'riqnomalar ishlab chiqishdir. Har bir soha uchun maxsus yo'riqnomalar tayyorlash, amaliy misol va holatlarni kiritish, standartlarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar berish, monitoring va baholash ko'rsatkichlarini belgilash hamda doimiy yangilab turish tizimini yaratish zarur.

To'rtinchi mexanizm barcha xodimlar uchun muntazam antikorrupsiya o'quv kurslarini joriy etishdir. Barcha darajadagi xodimlar uchun asosiy kurslar, lavozim mas'uliyatiga qarab maxsuslashtirilgan treninglar, interaktiv o'quv usullari qo'llash, o'quv samaradorligini baholash tizimi va doimiy yangilanish dasturlari amalga oshiriladi.

Beshinchi mexanizm sektorlar bo'yicha pilot yihalar asosida standartni amalda sinab ko'rishdir. Ta'lim, sog'liqni saqlash, soliq organlari va boshqa muhim sohalarda pilot loyihalar amalga oshirish, tajribalarni o'rganish va tahlil qilish, muvaffaqiyatli amaliyotlarni aniqlash, qiyinchiliklar va to'siqlarni bartaraf etish yo'llarini topish hamda eng yaxshi tajribalarni tarqatish tizimi yaratiladi.

ISO 31000 standarti tashkilotlarga strategik va operatsion qarorlar qabul qilishda mavjud xavflarni aniqlash, baholash va samarali boshqarishga yordam beradi. Ushbu yondashuv korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va ular bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarni belgilashda ham muhim vosita hisoblanadi[1].

ISO 31000 korxona xavflarini boshqarish tizimi tashkilotlarga o'z faoliyatiga tahdid solishi mumkin bo'lgan xavf omillarini aniqlash va ularni samarali

[1] ISO 31000: Risk Management – Principles and Guidelines, ISO, 2018. https://www.iso.org/standard/65694.html#:~:text=ISO%2031000%20is%20an%20international,communicating%20risks%20across%20an%20organization.

boshqarish uchun zarur boʻlgan tizimli infratuzilmani yaratishda xizmat qiladi. Ushbu standartga koʻra, har bir xavf doimo salbiy oqibatlarga olib kelmaydi – baʼzi hollarda ular yangi imkoniyatlarga ham yoʻl ochishi mumkin.

Davlatning tartibga soluvchi rolini va ISO 31000 standartining xavflarni boshqarishdagi ahamiyatini ulkan. Ushbu standart noaniqliklarni samarali hal qilish, shaffoflikni taʼminlash va loyiha natijalarini yaxshilashda institutsional asosning ahamiyatini kuchaytiradi[1].

ISO 31000 tizimi orqali korxonalar xatarlar bilan birga yuzaga keladigan yangi yoʻnalishlar va qiyinchiliklarni chuqur anglab, ularni oʻz foydasi yoʻlida yoʻnaltira oladi. Eng asosiysi, bu yondashuv tashkilotga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan xavflarni kamaytirish, boshqarish va oldini olish choralari hisoblanadi.

Korxona xatarlarini boshqarish tizimi Yevropa Ittifoqining asosiy tamoyillarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- Kompaniyalarning xatarlarini boshqarish va ularga ushbu xatarlardan zarar koʻrmasdan oʻz faoliyatini davom ettirishga imkon berish.
- Bir martali emas, balki kompaniyalar uchun risklarni boshqarishning izchil va takrorlanadigan rejalarini tuzish va amalga oshirish.
- Kompaniya uchun qiymat yaratish va saqlab qolish.
- Kompaniyani oʻz raqiblaridan ustunligini berish.
- Xatarlarni boshqarish jarayonlari kompaniyaning kundalik biznes jarayonlarining bir qismi boʻlishini taʼminlash.
- Qaror qabul qilish tizimining bir qismi boʻlish.
- Kompaniya ichida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan xavf-xatarlarni oldini olish uchun.
- Xodimlarda xatarlarni boshqarish haqida xabardorlikni shakllantirish[2].

---

[1] Karimov, K. R. (2024). Analysis of institutional frameworks of risk assessment and mitigation in project management. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(3), 73-80.
[2] ISO 31000 Enterprise risklarni boshqarish tizimiming asosiy printsiplari qanday?. https://www.sciencetr.com/uz/belgelendirme/sistem-belgelendirme/iso-31000-kurumsal-risk-yonetim-sistemi/iso-31000-kurumsal-risk-yonetim-sistemi-temel-prensipleri-nelerdir

Qisqasi, xatarlar ikkita asosiy xususiyatga ega. Ushbu xususiyatlardan biri ma’lum bir maqsadga erisha olmaslik yoki istalmagan voqea sodir boʻlish ehtimoli. Yana bir xususiyat — bu xavf yuzaga kelgan taqdirda yuzaga keladigan vaziyatlarning ta’siri hisoblanadi.

ISO 31000 standartining asosiy prinsip va komponentlari. Kontekstni aniqlash - tashkilot ichki va tashqi muhitini aniqlab olishi lozim. Tashqi kontekst iqtisodiy vaziyat va bozor sharoitlari, siyosiy va huquqiy muhit, ijtimoiy va madaniy omillar, texnologik oʻzgarishlar, atrof-muhit omillari va raqobat muhitini oʻz ichiga oladi. Ichki kontekst esa tashkilotning tuzilishi va boshqaruv tizimi, resurslar va imkoniyatlar, korporativ madaniyat, strategik maqsadlar va vazifalar, operatsion jarayonlar hamda xodimlarning malakasi va tajribasini qamrab oladi.

Monitoring va tahlil qilish - risklarni boshqarish jarayonlarini doimiy ravishda kuzatish va takomillashtirishni oʻz ichiga oladi. Bu jarayon asosiy koʻrsatkichlarni kuzatish, muntazam hisobotlar tayyorlash, tizimning samaradorligini baholash, qayta koʻrib chiqish va yangilash hamda dars olish va tajriba almashish orqali amalga oshiriladi.

Oʻzbekistonda joriy etish zarurati. Oʻzbekistonning davlat va xususiy sektorida ISO 31000 standartini joriy etish quyidagi ehtiyojlar bilan bogʻliq: strategik rejalashtirishni takomillashtirish, investitsiya loyihalarida xavflarni oldindan tahlil qilish, xavfga asoslangan qarorlar qabul qilishni ragʻbatlantirish, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni taʻminlash hamda tabiiy ofatlar, texnik nosozliklar, moliyaviy inqirozlar kabi holatlarga tayyorlikni oshirish.

Oʻzbekistonning rivojlanayotgan iqtisodiyoti valyuta kursining beqarorligi, inflyatsiya jarayonlari, moliyaviy bozorlarning rivojlanmagan boʻlishi, tashqi moliyalashga bogʻliqlik va investitsiya muhitining noaniqlik kabi xavflar bilan duch kelmoqda. Ijtimoiy jihatdan aholi farovonligini ta’minlash, ish oʻrinlarini yaratish va saqlash, ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash, ta’lim va sogʻliqni saqlash tizimlarini rivojlantirish hamda ijtimoiy adolatni ta'minlash zaruriyati mavjud.

Birinchi bosqich normativ-huquqiy asoslarni yaratishdan iborat boʻlib, tavakkalchiliklarni boshqarish boʻyicha maxsus qonun yoki nizomlar ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu bosqichda “Xavflarni boshqarish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish, mavjud qonunlarga tegishli oʻzgartirishlar kiritish, vazirliklar va idoralar uchun maxsus nizomlar yaratish va xalqaro standartlar bilan uygʻunlashtirish zarur. Shuningdek, milliy xavflarni boshqarish kengashini tashkil etish, sektorlar boʻyicha koordinatsion organlar yaratish, nazorat va monitoring organlarini belgilash hamda ekspertlar guruhi va ilmiy kengashlar tashkil etish institutsional tuzilmani yaratish jarayonining muhim qismidir.

Ikkinchi bosqich har bir tashkilotda xavflarni boshqarish tizimini yaratish, maxsus boʻlim, masʼul shaxs va ichki nazorat tizimini yoʻlga qoʻyishdan iborat. Bu jarayonda xavflarni boshqarish boʻlimi yaratish, boʻlim vazifalari va masʼuliyatini belgilash, kerakli kadrlarni tanlash va tayinlash, boshqa bo'limlar bilan o'zaro aloqani yoʻlga qoʻyish va hisobotlar tizimini oʻrnatish zarur. Yuqori darajadagi xavflar boʻyicha masʼul direktor, boʻlimlar boʻyicha xavflar koordinatorlari, loyihalar boʻyicha xavflar menejerlari va operatsion darajadagi masʼul xodimlarni tayinlash tashkiliy tuzilmani shakllantirishning muhim qismidir.

Ichki nazorat tizimini yoʻlga qoʻyish jarayonida uch himoya chizigʻi modelini joriy etish, ichki audit funktsiyasini kuchaytirish, komplayens tizimini yaratish va xavflar boʻyicha hisobotlar tizimini oʻrnatish amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich xodimlar uchun oʻquv dasturlarini ishlab chiqish va xavf tahlili, baholash va boshqarish boʻyicha treninglar tashkil etishni oʻz ichiga oladi. Taʻlim dasturlari ishlab chiqish jarayonida umumiy xavflar madaniyati, xavflarni tushunish va anglab etish, xavflar bilan ishlash asoslari, tashkilotdagi har bir xodimning roli va xavflarni xabar qilish jarayonlarini oʻrganish muhim. Maxsus treninglar doirasida xavflarni aniqlash usullari, miqdoriy va sifatiy baholash texnikalari, xavflarni boshqarish strategiyalari hamda monitoring va hisobotlar tuzish oʻrgatiladi. Rahbarlar uchun kurslar strategik xavflarni boshqarish, xavfga asoslangan qarorlar qabul qilish, xavflar madaniyatini rivojlantirish va inqiroz boshqaruvini oʻz ichiga oladi. Sertifikatlash tizimi milliy sertifikatlash

standartlarini ishlab chiqish, xalqaro sertifikatlarni tan olish tizimi, doimiy ta'lim dasturlari va malaka oshirish kurslarini qamrab oladi.

To'rtinchi bosqich axborot texnologiyalaridan foydalanish va xavflarni kuzatish va prognoz qilishda raqamli vositalarni joriy etishdan iborat. Raqamli platformalar yaratish jarayonida xavflarni boshqarish tizimlari yaratiladi, bu tizimlar xavflarni ro'yxatga olish va kuzatish, avtomatik hisobotlar yaratish, trend tahlili va prognozlash hamda dashboard va vizualizatsiya imkoniyatlarini taqdim etadi.

Loyiha boshqaruvida xavflarni tahlil qilishda institutsional asoslar muhim rol o'ynaydi va ISO 31000 bu jarayonning samaradorligini oshiradi[1]. ISO 31000 xavfni faqat yo'qotish sifatida emas, balki imkoniyat sifatida ham ko'radi. Bu esa tashkilotga har bir xavfni chuqur tahlil qilishga yordam beradi[2].

ISO 31000 va ISO 37001 standartlarini uyg'unlashtirish korrupsiyaga qarshi kurashda integratsiyalashgan yondashuvni ta'minlaydi.

ISO 31000 va ISO 37001 ni sinergid asosda qo'llash orqali tashkilot ichidagi xavf va tahdidlarni aniq belgilash, baholash va nazorat qilish mumkin[3].

Slovakiyalik tadqiqotchi Veselovskaning va uning hamkasblari esa bu yondashuvni korporativ ijtimoiy javobgarlik doirasida ko'rib chiqadi va korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish orqali tashkilotlar ijtimoiy ishonchni oshirishlarini ko'rsatadi[4].

Ukrainalik olim Pechenkin Yevropa Ittifoqi davlatlarida korrupsiya va xizmat faoliyati ustidan shikoyatlar bo'yicha normativ-huquqiy tartibotlarni tahlil qilib, ushbu yondashuvni Ukraina kabi davlatlar uchun foydali model sifatida taklif

---

1 Karimov, K. R. (2024). Analysis of Institutional Frameworks of Risk Assessment and Mitigation in Project Management. Oriental Renaissance, 4(3), 73-80.

2 Woellner, R. A., Voorhees, J., & Bell, C. L. (2020). International environmental risk management: A systems approach. CRC Press. 43-b.

3 Lizarzaburu Bolaños, E. R., Barriga, G., Burneo, K., & Noriega, E. (2019). Gestión Integral de Riesgos y Antisoborno: Un enfoque operacional desde la perspectiva ISO 31000 e ISO 37001. Revista universidad y empresa, 21(36), 79-118.

4 Veselovská, L., Závadský, J., & Závadská, Z. (2020). Mitigating bribery risks to strengthen the corporate social responsibility in accordance with the ISO 37001. Corporate social responsibility and environmental management, 27(4), 1972-1988.

etadi[1]. Bunday institutsional asoslar ISO standartlari bilan uygʻunlashtirilganda korrupsiya xavflarini tizimli boshqarish imkoniyati yuzaga keladi.

Shuningdek, yevropalik bir qator olimlar jumladan, Woellner va boshqalar tomonidan ilgari surilgan tizimli yondashuv ISO standartlarining atrof-muhit, iqtisodiy va ijtimoiy risklarni integratsiyalashgan holda baholash imkoniyatini taʼminlashini koʻrsatadi. Bu esa korrupsiyaviy xavflarni kompleks tarzda koʻrib chiqishga asos boʻladi[2].

Yaʼni, ularning fikricha, tashkilot alohida boʻlimlardan iborat boʻlgan murakkab tizim sifatida qaraladi. Har ybir boʻlimdagi xavf boshqa boʻlimlarga ham taʼsir qilishi mumkin. Shu sababli, xavflarni baholashda har bir boʻlim va ularning oʻzaro aloqalari kompleks koʻrib chiqiladi.

ISO 31000 va ISO 37001 standartlarini integratsiyalashgan boshqaruv tizimlari yordamida korxonalarda samaradorlik va xavfsizlikni oshirish mumkin. Bu ISO 37001ning avtomatlashtirilgan jarayonlar orqali korrupsiyani aniqlash va oldini olishdagi oʻrni muhimligini anglatadi[3].

Standart tashkilotning ichki va tashqi kontekstini, manfaatdor tomonlarning ehtiyoj va kutishlarini tahlil qilishni talab qiladi. Bu esa tashkilotga oʻzining korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini samarali tarzda moslashtirish imkonini beradi[4].

Tahlil qilib aytganda ISO 31000 va ISO 37001 standartlari korrupsiyaga qarshi kurashda zamonaviy, tizimli va institutsional yondashuvlarni taqdim etadi. Xavflarni aniqlab, yoʻqotishlar oldini oladi, barqarorlikni oshiradi. Korrupsiyaga qarshi kurashadi; halollik va shaffoflikni taʼminlaydi.

---

[1] Pechenkin, I. V. (2021). Peculiarities of EU countries normative-legal provision on regulation of the sphere of appeal of service activity of public authorities: experience for Ukraine. Восточно-европейский научный журнал, (4-5), 20-26.

[2] Woellner, R. A., Voorhees, J., & Bell, C. L. (2020). International environmental risk management: A systems approach. CRC Press. 99-b.

[3] Tsopa, V., Cheberiachko, S., Cheberiachko, L., Nesterova, O., & Pustovoi, D. (2025, March). Increasing the efficiency of integrated enterprise management systems. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 1481(1), 012013. 78-b.

[4] Arias Ortiz, E. S. (2017). Análisis de la norma ISO 37001 y su relación con las ISO utilizadas en la gestión de riesgos (Bachelor's thesis, Univesidad del Azuay). 147-b.

III BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BOSHQARUVIDA KORRUPSIYAVIY XAVFLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH TIZIMINI JORIY QILISH ISTIQBOLLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari va istiqbollari

Korrupsiya rivojlanayotgan global tahdid bo‘lib, u taraqqiyotga putur yetkazishdan ko‘ra ko‘proq narsani ta’minlaydi — bu demokratiyaning pasayishi, beqarorlik va inson huquqlari buzilishining asosiy sababidir. Xalqaro hamjamiyat va har bir davlat korrupsiyaga qarshi kurashishni eng muhim va uzoq muddatli ustuvor vazifaga aylantirishi kerak. Bu avtoritarizmga qarshi turish va tinch, erkin va barqaror dunyoni ta’minlash uchun juda muhimdir[1] – deb ta’kidlab o‘tgan Xalqaro korrupsiya reytingini tuzuvchi “Transparency International” agentligi raisi Fransua Valerian.

Darhaqiqat, so‘ngi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu xalqaro reytinglarda o‘z aksini topmoqda. Jumladan O‘zbekisston so‘ngi 2024-yilda xalqaro nufuzli manbalar bo‘lmish “Transparency International” agentligining korrupsiya reytingida 180 ta davlat ichida 121-o‘rinni egalladi. (Qarang: 3-ilova). Ushbu reyting har yili 180 ta davlatda korrupsiya darajasini baholaydi. Bu baholash xalqaro ekspertlar va biznes yetakchilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar asosida amalga oshiriladi. Baholashda Jahon banki, Jahon iqtisodiy forumi, Freedom House kabi tashkilotlarning ma’lumotlari asos bo‘ladi. Bu indeks faqat ekspertlar fikrlariga asoslangan bo‘lib, oddiy fuqarolar fikrini inobatga olmaydi.

“WJP Rule of Law Index”ning korrupsiya bo‘yicha reytingi asosan 8 ta asosiy omil va 44 ta kichik omil bo‘yicha baholanadi, jumladan: hukumat vakolatlarini cheklash, korrupsiyaning yo‘qligi, ochiq hukumat, asosiy huquqlar, tartib va

[1] Fransua Valerian — Transparency International raisi. https://www.transparency.org/en/cpi/2024/index/dnk

xavfsizlik, reglament ijrosi, fuqarolik huquqi va jinoiy huquqlarini oʻz ichiga oladi. Ushbu omillardan biri esa korrupsiyaning yoʻqligi omili boʻlib ushbu omil yoʻnalishida Oʻzbekiston 142 ta davlat orasida 63-oʻrinni egalladi. (Qarang: 4-ilova). Ushbu indeks 142 ta davlatda qonun ustuvorligi darajasini oʻlchaydi. Baholash 3,400 dan ortiq yuridik mutaxassislar oʻrtasida oʻtkazilgan soʻrovnomalar asosida amalga oshiriladi. Indeks 8 ta asosiy omil va 44 ta kichik omil boʻyicha baholanadi, jumladan: hukumat vakolatlarini cheklash, korrupsiyaning yoʻqligi, ochiq hukumat, asosiy huquqlar, tartib va xavfsizlik, reglament ijrosi, fuqarolik huquqi va jinoiy huquqlarini oʻz ichiga oladi.

Shuningdek, “The RTI Rating” tomonidan tuzilgan axborot olish huquqining global reytingida 54 ball bilan qoniqarsiz davlatlar qatoridan joy oldi. (Qarang: 5-ilova). Ushbu reyting davlatlarning axborot olish huquqini ta’minlashdagi qonunchilik va amaliyotini baholaydi. Davlatlar 150 ballik tizimda baholanadi; yuqori ball – axborot olish huquqining yaxshi ta’minlanganligini anglatadi. Baholashda davlatlarning axborot olish huquqi boʻyicha qonunlari, ularning amaliyoti va fuqarolarga axborotga erkin kirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Reyting faqat davlatlarnng qonunchilik va siyosatga asoslangan xolda tuziladi.

“World population review”ning dunyo davlatlarida korrupsiyani idrok etish reytingida esa 32 ball bilan qoniqarsiz davlatlar ichidan oʻrin oldi. (Qarang: 6-ilova). Ushbu reyting davlatlardagi korrupsiya darajasini fuqarolar va biznes yetakchilari fikriga asoslanib baholaydi.

Yana bir reyting “Risk Index”ning 2023-yildagi global korrupsiya reytingida 196-mamlakat ichida mamlakatimiz 145-oʻrinni band etgan. (Qarang: 7-ilova). Ushbu indeks davlatlardagi korrupsiya xavfini baholaydi, ayniqsa biznes va investitsiya muhiti nuqtai nazaridan. Davlatlar 0 dan 100 gacha ball oladi va yuqori ball – past korrupsiya xavfini anglatadi. Baholashda biznes sohasidagi ekspertlar, xalqaro tashkilotlar va boshqa manbalar ma’lumotlari qoʻllaniladi.

Tahlilarimiz shuni koʻrsatdiki Oʻzbekiston ushbu reytinglarda 2022-yilgacha oʻsish koʻrsatgichiga erishgan. Lekin 2023-yildan to hozirgi davrgacha deyarlik barcha korrupsiyaga oid reytinglarda pasayish yoki turgʻunlik kuzatilgan.

(Qarang: 8-ilova). Albatta bunga sabab qilib korrupsiyani aniqlashda, baholash va boshqarish sohalarida yangi bosqichlarga oʻtilyotgani sababli korrupsiya holatlarini yana ham aniqlash osonlashganini yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni fosh etishda ildam qadamlar tashlanyotgani va bu boradagi tahlilar, axborotlarni ommaga ochiq oydin olib chiqilayotgani bilan izohlash mumkin. Lekin fikrimizcha ushbu jarayonlarga mos va mutanosib ravishda davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirish yoʻnalishlari va istiqbollarini yanada rivojlantirish darkor.

Davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurashni takomillashtirish esa bir kunlik yoki ma'lum davrdagi harakat emas, balki strategik va uzluksiz yondashuvni talab qiladigan murakkab jarayondir. Huquqiy asoslarni mustahkamlash, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, fuqarolik jamiyatini faol jalb etish hamda xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish orqali bu yoʻnalishda barqaror natijalarga erishish mumkin. Zero, korrupsiyadan xoli jamiyat – taraqqiyot, adolat va farovonlikning eng muhim kafolatidir.

Davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirish yoʻnalishlari va istiqbollari – bu korrupsiyaviy xavflarni minimallashtirish, davlat organlarining shaffofligi va hisobdorligini oshirish hamda fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirishga yoʻnaltirilgan kompleks yondashuvlarni oʻz ichiga oladi. Quyida bu boradagi asosiy yoʻnalishlar va istiqbolli chora-tadbirlar keng qamrovda yoritiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirish yoʻnalishlaridan biri huquqiy asoslarni takomillashtirishdir. Korrupsiyani oldini olishga doir huquqiy normalarni aniq va amaliy mexanizmlar bilan mustahkamlash — qonunlardagi umumiy formulirovkalarni aniq va bajarilishi mumkin boʻlgan amaldagi koʻrsatmalar bilan almashtirish, korrupsiya xavflarini baholash va ularning oldini olish uchun konkret vositalarni yaratish.

Amaldagi qonun hujjatlari va me'yoriy-texnik bazaning mukammalligi korrupsiyani samarali tarzda aniqlash, baholash va oldini olish jarayonlariga bevosita ta'sir qiladi.

Ayni paytda, ayrim normativ-huquqiy hujjatlarda korrupsiyaga qarshi kurashga doir qoidalar umumiy formulirovka (ifoda) shaklida bayon etilgan bo'lib, ular amaliyotda aniq harakat mexanizmlarini belgilab bera olmayapti. Shu bois, qonunchilikni isloh qilish quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi maqsadga muvofiq:

Ko'plab qonun va nizomlarda "korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik", "shaffoflikni ta'minlash", "xodimlarning halolligini oshirish" kabi umumiy tushunchalar mavjud. Biroq bu iboralar amaliyotda qanday tatbiq etilishi bo'yicha aniq ko'rsatmalar bilan to'ldirilmagan. Shu bois, har bir norma bajarilishi lozim bo'lgan harakatlar, mas'ul shaxslar, nazorat usullari, va sanksiyalar bilan birga belgilanishi zarur. Masalan, "shaffoflikni ta'minlash" deganda – aniq qanday axborotlar e'lon qilinadi, qanday platformada, kim tomonidan, va qachon – degan jihatlar huquqiy hujjatda aks ettirilishi kerak.

Yangi tahrirdagi qonunlarda va qarorlarda quyidagi amaliy mexanizmlar belgilanishi kerak. Korrupsiyaviy xavflarni baholash tizimi — har bir tashkilot o'zining faoliyat sohasidagi xavf zonalarini aniqlab, muntazam baholashi shart. Manfaatlar to'qnashuvini ochiqlash majburiyati — davlat xizmatchilari, hatto mahalliy darajadagilari ham har yili o'z manfaat doirasi haqida axborot berishi kerak.

Korrupsiyaga qarshi qonunchilikda fuqarolarning, NNTlarning, OAVning ishtirokini qonuniy asosda kengaytirish muhim. Ijtimoiy nazorat mexanizmlarini qonun bilan belgilash. "Ochiq ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunni kuchaytirish. Davlat xaridlari, davlat xizmatlari, davlat investitsiyalari ustidan jamoatchilik monitoringi mexanizmlarini yaratish.

Fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi qonunchilikni takomillashtirishda "umumiy siyosiy bayonotlar"dan voz kechib, aniq texnik vositalar va mexanizmlar asosida harakat qilish zarur. Chunki amaliyotda

samarali kurash uchun nafaqat niyat, balki huquqiy me’yorning aniq va tushunarli ifodasi ham muhim.

Bundan tashqari, har bir qonun yoki qaror qabul qilingach, u amaliyotda qanday ishlashi, qanday ta’sir ko‘rsatishi, qanday muammolarni hal qilishi haqidagi ekspert tahlillar va monitoring tizimlarini yaratish kerak. Chunki qog‘ozdagi norma bilan real hayotdagi natija o‘rtasidagi farq aynan shu jihatdan aniqlanadi.

Huquqni qo‘llash amaliyotini rivojlantirish. Davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari va istiqbollari mavzusida huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish va tahlil qilish zarur. Chunki bu orqali islohotlar faqat nazariy emas, balki amaliy asoslangan, dalillangan va aniq muammolarga javob bera oladigan bo‘ladi. Shu tariqa, tizimdagi zaif joylar ochiladi, real takliflar ishlab chiqiladi. Davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri — bu huquqni qo‘llash amaliyotini chuqur tahlil qilish asosida qonunchilik va amaliy mexanizmlarni yanada takomillashtirishdan iboratdir. Chunki mavjud qonunlar qanchalik mukammal bo‘lmasin, ularning amalda qanday qo‘llanayotgani, qanday natija berayotgani korrupsiyaga qarshi kurashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, amaldagi ko‘plab qonun hujjatlarida korrupsiyani oldini olishga oid normalar ko‘proq umumiy bayonotlar va printsiplar shaklida berilgan. Masalan, “shaffoflikni ta’minlash”, “manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish”, “xodimlarning halolligini oshirish” kabi iboralar amaliy jihatdan qanday tartibda amalga oshirilishi haqida aniq yo‘riqnoma va mexanizmlar bilan to‘ldirilmagan. Shu bois qonun hujjatlaridagi umumiy formulirovkalarni bajarilishi mumkin bo‘lgan aniq va konkret ko‘rsatmalar bilan almashtirish zarur. Bu, o‘z navbatida, davlat idoralari zimmasiga qanday aniq majburiyatlar yuklatilishini belgilab beradi va nazoratni kuchaytiradi.

Huquqni qo‘llash amaliyotida kuzatilayotgan yana bir muhim holat — korrupsiyaviy jinoyatlar ko‘p hollarda jinoyat sodir bo‘lganidan keyin

aniqlanmoqda. Bu esa tizimda profilaktika va proaktiv (oldini olishga qaratilgan) yondashuvlar yetarli emasligini koʻrsatadi. Korrupsiyaga qarshi kurash faqat jazolash bilan cheklanmasligi, balki oldini olish, xavfli zonalarni erta aniqlash va monitoring qilish bilan ham chambarchas bogʻliq boʻlishi lozim. Shu maqsadda korrupsiyaviy xavflarni baholash tizimlari, "red flag" signal tizimlari, sun'iy intellekt asosida xatar monitoringi kabi ilgʻor raqamli mexanizmlarni huquqiy asos bilan mustahkamlash muhim hisoblanadi.

Shuningdek, huquqni qoʻllash amaliyotida korrupsiyaga qarshi compliance boʻlimlarining faoliyati ham yetarlicha mustaqil emasligi aniqlanmoqda. Koʻplab hollarda bu boʻlimlar tashkilot rahbariga toʻgʻridan-toʻgʻri boʻysunadi va bu holat ularning real tekshiruv olib borishiga, mustaqil xulosa chiqarishiga toʻsqinlik qiladi. Shu bois compliance xodimlarini bevosita Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi tomonidan tayinlash va unga hisobot beradigan tizimni yaratish huquqiy asosda mustahkamlanishi zarur.

Amaldagi mol-mulk va manfaatlar toʻqnashuvi deklaratsiyasi tizimi ham qonunchilikda belgilangan boʻlsa-da, huquqni qoʻllash amaliyoti uning yetarlicha samarali emasligini koʻrsatmoqda. Deklaratsiyalar koʻp hollarda rasmiyatchilik uchun topshirilmoqda, ularning toʻliqligi, tekshirilishi, natijasi yuzasidan ochiq axborot mavjud emas. Shu sababli davlat xizmatchilarining moliyaviy holati haqida elektron deklaratsiya tizimini joriy etish, ularni ochiq va shaffof qilish, tekshiruv mexanizmlarini kuchaytirish lozim.

Huquqni qoʻllash amaliyoti shuningdek, sud qarorlarida korrupsiyaviy jinoyatlarga turlicha yondashuv mavjudligini koʻrsatmoqda. Ba'zi hollarda oʻxshash xatti-harakatlar uchun turli darajadagi jazolar belgilanmoqda, bu esa qonun ustuvorligiga putur yetkazadi. Shu bois korrupsiyaga oid jinoyat ishlarida sud amaliyotini umumlashtirish, Oliy sud tomonidan tavsiyalar berish va bu borada maxsus sudlov tarkiblarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, jamoatchilik nazorati va ochiqlik tamoyillari ham huquqni qoʻllash amaliyotida sust rivojlangan. Koʻpchilik davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik monitoringi mavjud emas, mavjud ochiq ma'lumotlar

portallari esa to‘liq ishlamaydi yoki yetarlicha faol emas. Shu sababli jamoatchilik nazorati bo‘yicha huquqiy asoslar kuchaytirilishi, ijtimoiy nazorat subyektlariga aniq vakolatlar berilishi lozim.

Davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirishda huquqni qo‘llash amaliyotini chuqur tahlil qilish zarur. Bu orqali qonunchilikdagi bo‘shliqlar aniqlanadi, amaliyotda duch kelinayotgan real muammolarga asoslangan takliflar ishlab chiqiladi. Faqat qonunlarni qabul qilish emas, balki ularning qanday ishlayotganini, qanday natija berayotganini tahlil qilish — tizim samaradorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi raisining o‘rinbosari Akmal Saidovning fikricha, korrupsiyaga qarshi kurashish ushbu sohadagi qonunchilikni hamda huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish, davlat organlari va davlat xizmatchilari faoliyatining oshkoraligini kengaytirish bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish va inson huquqlarini ta’minlash bo‘yicha ta’lim, targ‘ibot va inson huquqlariga rioya qilish madaniyatini kuchaytirish tadbirlarini yanada keng targ‘ib qilishni ham talab qiladi[1].

Bizningcha ham davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirishda qonunchilikni takomillashtirish birinchi qadam bo‘lsa, uning huquqni qo‘llash amaliyotida qanday ishlayotgani esa bu tizimning haqiqiy samaradorligini belgilab beradi. Har qanday qonun real hayotda qanday natija berayotganini o‘rganmasdan turib, uni to‘liq muvaffaqiyatli deb bo‘lmaydi. Shu boisdan, korrupsiyaga qarshi kurash faqat jazolovchi chora-tadbirlar bilan cheklanmasligi, balki oldini oluvchi, ta’limiy, axloqiy va institutual islohotlar bilan birgalikda olib borilishi kerak.

Korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish. Ma‘lumki, korrupsiyaga qarshi kurashish davlat va jamiyatning birdek vazifasi hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi jamiyat tomonidan unga qanday munosabatda

[1] Saidov, A. 2022. O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati: xalqaro standartlar va milliy tizim. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 2, 1 (mart 2022), 3–8. DOI: https://doi.org/10.47689/uacd-2181- 3345--vol2-iss1-pp3-8

bo‘linishiga bog‘liq ekanligi tadqiqotlarda o‘zining isbotini topgan[1]. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni qaror toptirishning eng asosiy vositasi sifatida tushuniladi. Tadqiqotlarda korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirishning aniq metodlari haqida yaxlit fikrlar mavjud emas.

Korrupsiyaga qarshi kurashda madaniyatni shakllantirish, ayniqsa yosh avlod va davlat xizmatchilari orasida halollik, adolat va javobgarlik tamoyillarini ongli ravishda qabul qilishni ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq. Bu borada qonunchilik va nazorat mexanizmlaridan tashqari, ta’lim, targ‘ibot va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash muhim o‘rin tutadi.

Korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirishda, eng avvalo, korrupsiya nima ekani, uning jamiyat taraqqiyotiga qanday xavf tug‘dirishini keng tushuntirish, bu borada muntazam huquqiy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish zarur. Ayniqsa, maktab, kollej va oliy o‘quv yurtlarida halollik darslarini joriy qilish, davlat idoralarida esa xodimlarning axloqiy immunitetini kuchaytiruvchi ichki ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish lozim.

Fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi madaniyatni rivojlantirish jarayonida, eng avvalo, fuqarolarda “korrupsiya”, “korrupsiyaviy omillar” hamda “korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar” kabi asosiy tushunchalar yuzasidan aniq va to‘g‘ri tasavvurlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlar shuni ko‘rsatmoqdaki, aholining bu boradagi bilim darajasi yetarli emas. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi madaniyatni qaror toptirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish lozim: korrupsiyaga qarshi huquqiy targ‘ibotni kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi huquqiy ta’limni kengaytirish, sog‘lom axloqiy qadriyatlarni singdirish hamda jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish.

---

[1] Brigitte Zimmerman. Transparency, Sanctioning Capacity, and Corruption Displacement: Multi-Method Evidence from Local Government in Malawi // https://escholarship.org/content/qt0q7490dw/qt0q7490dw_noSplash_fa8dfb5f2ac45b81d761ede4a2adc372.pdf. 69-bet.

Institutsional islohotlar va vakolatli organlar faoliyatini kuchaytirish. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining vakolatlarini kengaytirish, uni mustaqil va siyosiy bosimdan holi holda faoliyat yuritishini ta'minlash — agentlikning moliyaviy mustaqilligi, kadrlar siyosatida avtonomligi va tergov faoliyatida mustaqilligi ta'minlanishi zarur.

Ichki nazorat va audit tizimlarini mustahkamlash, har bir vazirlik va idorada samarali compliance (moslik) boʻlimlarini tashkil etish — bu tizim korrupsiya xavflarini dastlabki bosqichda aniqlash va ularning oldini olish uchun proaktiv yondashuvni ta'minlaydi.

Davlat xizmatchilari uchun maxsus etik kodekslar va manfaatlar toʻqnashuvini boshqarish tizimini joriy etish — davlat xizmatchilarining professional faoliyatida axloqiy me'yorlarni belgilaydi va shaxsiy manfaatlar bilan davlat xizmati vazifalarining toʻqnashuvini oldini oladi.

Hisob palatasi, prokuratura, moliya nazorati va boshqa tuzilmalar oʻrtasida ma'lumotlar almashinuvi va monitoring tizimining yagona axborot maydonida ishlashini yoʻlga qoʻyish — nazorat organlarining koordinatsiyasi va samaradorligini oshiradi, dublikatsiya va boʻshliqlarni bartaraf etadi.

Vakolatli organlarning mustaqilligini ta'minlash va ular oʻrtasida muvofiqlikni kuchaytirish. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Hisob palatasi va Davlat xavfsizlik xizmati kabi organlarning vakolatlari aniq belgilanishi, ularning mustaqil va samarali faoliyat yuritishi kafolatlanishi zarur. Ayniqsa, ularning siyosiy bosimdan xoli ishlashi, faoliyatining ochiqligi va jamoatchilik nazorati ostida boʻlishi muhimdir.

Korrupsiyaga qarshi kurashda maxsus institutlararo platformalarni yaratish.

Mazkur yoʻnalishda turli vakolatli organlar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xalqaro tashkilotlar hamkorligini kuchaytirish maqsadida doimiy ishlovchi koordinatsion kengashlar, ma'lumot almashinuvi tizimlari va yagona raqamli platformalarni yoʻlga qoʻyish taklif etiladi.

Kadrlar tanlovi va ularning malakasini oshirish tizimini isloh qilish. Davlat boshqaruvi tizimida xizmatga qabul qilish, lavozimlarga tayinlash va ularni baholash tizimida ochiqlik, shaffoflik va meritokratiya (shaxsiy yutuqlarga asoslangan yondashuv) tamoyillari asosida ish yuritilishi ta'minlanishi zarur. Korrupsiyaga qarshi kurashda faoliyat yurituvchi kadrlar uchun doimiy treninglar, xalqaro tajriba almashuvi dasturlari tashkil qilinishi kerak.

Jamoatchilik va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish.
Vakolatli organlar faoliyati ustidan ommaviy axborot vositalari va nodavlat notijorat tashkilotlari nazoratini ta'minlash orqali ularning ochiqligi va hisobdorligini oshirish mumkin. Shuningdek, jamoatchilik nazorati vakolatlarini mustahkamlovchi huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilishi kerak.

Korrupsiyaga qarshi kurashda institutsional asoslarning takomillashuvi davlat boshqaruvidagi islohotlarning markaziy yo‘nalishlaridan biridir. Zero, korrupsiya tizimli muammo bo‘lib, uni bartaraf etish muvofiqlashtirilgan, izchil va huquqiy asoslangan institutlar faoliyatini talab etadi. Shu bois, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishda quyidagi institutsional islohotlar ustuvor ahamiyatga ega. Institutsional islohotlar korrupsiyaga qarshi kurash tizimini barqaror, mustahkam va samarali holga keltirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Vakolatli organlarning faoliyatini kuchaytirish, ularning o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish, zamonaviy boshqaruv va etik standartlarni joriy etish orqali davlat boshqaruvida poklik, shaffoflik va ishonch muhitini mustahkamlash mumkin.

Raqamlashtirish va ochiqlik siyosatini yanada takomillashtirish. Davlat xizmatlarining elektronlashtirilishi orqali inson omilini kamaytirish va shaffoflikni oshirish — elektron hukumat platformalarini rivojlantirish, davlat xizmatlarini onlayn ko‘rsatish, raqamli imzo va elektron hujjat aylanishini joriy etish korrupsiya imkoniyatlarini sezilarli darajada qisqartiradi.

Xaridlar, litsenziyalash, tender va subsidiyalar boʻyicha barcha axborotlarning ochiqligini qonuniy asosda taʼminlash — davlat xaridlari tizimida toʻliq shaffoflik, tender jarayonlarida adolatlilik va raqobatni taʼminlash.

Sunʼiy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini korrupsiyaning oldini olishda tatbiq etish — big data tahlili orqali korrupsiya xavflarini aniqlash, blokcheyn asosida oʻzgarmas maʼlumotlar bazasi yaratish va smart-kontraktlar orqali jarayonlarni avtomatlashtirish.

Jahon banki tadqiqotchisi Daniel Kaufmann taʼkidlaydi: "Raqamlashtirish va ochiqlik davlat boshqaruvida hisobdorlikni kuchaytiradi, korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantiradi"[1].

Haqiqatdan ham, davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirishda raqamlashtirish va ochiqlik siyosati eng muhim va zamonaviy yoʻnalishlardan biridir. Zero, raqamli texnologiyalar nafaqat xizmatlar sifatini oshiradi, balki eng muhimi – inson omilini kamaytiradi. Aynan inson omili, yaʼni har bir qaror ortida turuvchi shaxsiy manfaat yoki norasmiy taʼsir omillari korrupsiya ildizlarining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash boʻyicha mutaxassis Alina Mungiu-Pippidi oʻz izlanishlarida raqamli texnologiyalar korrupsiyaviy muhitda "oddiy amaliy qarorlarni sunʼiy toʻsiqlarsiz qabul qilish imkonini beradi" deb yozadi[2].

BMTning Raqamli Boshqaruv boʻyicha 2022-yilgi hisobotida shunday xulosa beriladi: "E-hukumat va sunʼiy intellekt korrupsiyaga qarshi ilgʻor vositalar boʻlib, ular fuqarolar ishonchini oshiradi, jarayonlarni tezlashtiradi va korrupsion risklarni sezilarli kamaytiradi"[3].

Fikrimizcha, davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirishda raqamlashtirish va ochiqlik siyosati eng muhim va zamonaviy yoʻnalishlardan biridir. Zero, raqamli texnologiyalar nafaqat xizmatlar sifatini

[1] Kaufmann, D. (2010). Rethinking Governance Indicators: Approaches, Progress, and Challenges. World Bank Institute

[2] Mungiu-Pippidi, A. (2015). *The Quest for Good Governance: How Societies Develop Control of Corruption*. Cambridge University Press.

[3] United Nations E-Government Survey 2022. *The Future of Digital Government*. United Nations Department of Economic and Social Affairs (UNDESA).

oshiradi, balki eng muhimi – inson omilini kamaytiradi. Aynan inson omili, ya’ni har bir qaror ortida turuvchi shaxsiy manfaat yoki norasmiy ta’sir omillari korrupsiya ildizlarining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda davlat xizmatlarining onlayn shaklga oʻtishi, elektron imzo va hujjat aylanish tizimining joriy qilinishi korrupsion xavfning kamayishiga amalda xizmat qilmoqda. Masalan, davlat xizmatlarini koʻrsatish jarayonida raqamli texnologiyalar orqali yuzaga keladigan avtomatlashtirilgan echimlar odamlararo aloqa zaruratini yoʻq qiladi. Bu esa korrupsiyaviy muloqotlar va norasmiy kelishuvlar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

Shuningdek, ochiqlik — bu korrupsiyaga qarshi kurashdagi eng kuchli ijtimoiy mexanizmdir. Agar har bir fuqaroga davlat xaridlari, tenderlar, subsidiyalar, grantlar va litsenziyalash jarayonlari toʻgʻrisida ochiq va aniq axborot yetib borsa, jamoatchilik nazorati kuchayadi, bu esa amaldorlar uchun noqonuniy qaror qabul qilish imkoniyatini keskin pasaytiradi.

Yana bir muhim jihat — bu sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish. Bu texnologiyalar korrupsiyani “oʻrnida aniqlash” va uni oldindan bashorat qilish imkonini beradi. Masalan, blokcheyn texnologiyasi orqali davlat hujjatlarining soxtalashtirilishi yoki ortga datalash kabi korrupsion hatti-harakatlar mutlaqo imkonsiz boʻlib qoladi. Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida davlat organlaridagi resurslar notoʻgʻri taqsimlanayotgan joylar aniqlanadi.

Umuman olganda, men korrupsiyaga qarshi kurashda faqat jazolash emas, balki tizimning oʻzini shunday shakllantirish kerakki, korrupsiyaga sharoit boʻlmasligi uchun imkoniyatlar yoʻqolsin, deb hisoblayman. Bunday sharoit faqat raqamlashtirish, ochiqlik, texnologik innovatsiyalar va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik orqali yaratiladi.

Fuqarolik jamiyatining ishtirokini kuchaytirish. Korrupsiyaga qarshi samarali kurash nafaqat davlat institutlari, balki keng jamoatchilik, fuqarolar va nodavlat sektor vakillari ishtirokida olib borilgandagina ijobiy natija beradi. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi siyosatda fuqarolik jamiyati institutlarining

o‘rni va roli tobora ortib bormoqda. Bu yo‘nalishda quyidagi asosiy tashkiliy va ijtimoiy choralarni ilgari surish lozim.

Jamoatchilik kengashlari, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi nazoratda faol ishtirokini ta’minlash — fuqarolik jamiyatining institutlarini kuchaytirish, ularning davlat organlari faoliyatini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirish.

Fuqarolar uchun ochiq shikoyat va murojaat tizimlarini soddalashtirish va rag‘batlantirish — korrupsiya faktlari haqida xabar berish uchun qulay va xavfsiz kanallar yaratish, ma’lumot beruvchilarni himoya qilish tizimini mustahkamlash. Korrupsiyaviy holatlar haqida xavfsiz va ishonchli murojaat qilish mexanizmlari fuqarolar ishtirokining muhim tayanchidir. Bu yo‘nalishda quyidagi choralar zarur:

- “Ishonch telefoni”, onlayn platformalar, mobil ilovalar orqali oson murojaat qilish imkoniyati;
- Anonimlik va ma’lumot beruvchilarni himoya qilish (whistleblower protection);
- Shikoyatlar asosida jamoatchilik ishtirokida o‘rganish mexanizmlarini yaratish.

Ta’lim va targ‘ibot orqali fuqarolarning huquqiy ongi va antikorrupsiya madaniyatini rivojlantirish — jamiyatda korrupsiyaga qarshi ijtimoiy immunitetni shakllantirish, ta’lim tizimi orqali antikorrupsiya tarbiyasini rivojlantirish.

Jamoat eshituvi va ijtimoiy audit amaliyotlarini kuchaytirish — muhim davlat dasturlari va loyihalarini amalga oshirishda jamoatchilik ishtirokini ta’minlash, fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etilishi joiz hisoblanadi.

Shuningdek, fuqarolarda huquqiy ong, ijtimoiy mas’uliyat va halollik qadriyatlarini shakllantirish ha muhim omil sanaladi. Bu borada quyidagi ishlarni amalga oshirish darkor

- Maktab, kollej, oliy ta’lim muassasalarida antikorrupsiya ta’limi joriy qilinishi;
- Televideniya, radio, ijtimoiy tarmoqlar orqali barqaror targ‘ibot olib borilishi;
- Madaniy va diniy tashkilotlar orqali halollik, adolat va javobgarlik qadriyatlarini ilgari surish kerak.

Robert Klitgaard, korrupsiya tadqiqotchisi: “Korrupsiya ustidan eng kuchli nazorat mexanizmi — bu erkin jamiyat va xabardor fuqarolardir. Agar fuqarolar axborotga ega va faol bo‘lsa, korrupsiyani yashirish imkoniyati deyarli yo‘q[1] deb takidlab o‘tgani ham bejiz emas albatta.

Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyatining ishtirokini kuchaytirish — davlat boshqaruvining ochiqligi, hisobdorligi va adolatliligini ta'minlashda muhim omildir. Jamoatchilik kengashlari, NNTlar va OAVning faol ishtiroki davlat organlari ustidan tashqi nazoratni mustahkamlaydi, fuqarolarning ishonchini oshiradi va korrupsiya holatlarini fosh etishda samarali mexanizm vazifasini bajaradi.

Fuqarolar uchun xavfsiz va oson murojaat tizimlarining mavjudligi, ma'lumot beruvchilarni qonuniy himoya qilish choralari, ta'lim va targ'ibot orqali huquqiy ongni yuksaltirish, shuningdek, jamoatchilik eshituvlari va ijtimoiy audit amaliyotlarini kuchaytirish orqali jamiyatda korrupsiyaga qarshi ijtimoiy immunitet shakllanadi.

Shu boisdan, fuqarolik jamiyati institutlarini faollashtirish, ularga korrupsiyani oldini olish jarayonlarida haqiqiy ishtirokchi sifatida yondashish zarur. Bu esa nafaqat korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshiradi, balki davlat va jamiyat o‘rtasida ochiq, sog‘lom va ishonchli aloqalarni shakllantiradi.

Davlat xizmatchilari salohiyatini oshirish. Davlat xizmatchilari uchun doimiy antikorrupsiya treninglari va maxsus malaka oshirish dasturlarini joriy etish — korrupsiya xavflarini aniqlash, etik muammolarni hal qilish va professional

[1] Klitgaard, R. (1988). *Controlling Corruption*. University of California Press.

faoliyatni yuritishda to‘g‘ri yondashuvlarni shakllantirish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Maoshlar, ijtimoiy kafolatlar va mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali halollik tamoyillarini rag‘batlantirish — davlat xizmatchilari uchun munosib ish haqi va ijtimoiy kafolatlar tizimini yaratish, korrupsiyaga moyillikni kamaytiruvchi iqtisodiy omillarni bartaraf etish.

Kadrlar tanlovida halollik, professionallik va ochiq tanlov mezonlari asosida yondashish — merit tizimi asosida kadrlar siyosatini yuritish, shaffof va adolatli tanlov jarayonlarini joriy etish, nepotizm va kronizm holatlarining oldini olish.

Maosh, kafolat va mehnat sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar:

Har bir lavozim uchun “eng kam halol yashash indeksi” asosida maosh me’yorlarini aniqlash;

Xizmatda o‘sish va malaka darajasi ortishi bilan mos ravishda maosh va ijtimoiy kafolatlarni oshirish;

Ijtimoiy ipoteka, sog‘liqni saqlash va pensiya kafolatlarini davlat xizmatchilariga qo‘llash;

Ish joylarida xavfsizlik, texnik sharoit va ergonomika tamoyillariga mos mehnat muhiti yaratish.

Shu bilan birga bu borada kadrlar tanlovida halollik va professionallik mezonlarini joriy etish ham eng muhim harakatlardan biridir. Bu yo‘nalishlarda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Barcha davlat lavozimlariga tayinlashda ochiq tanlov (meritokratiya) asosida yondashuvni qonuniy tartibga solish;

Nomzodlar bo‘yicha korrupsiyaviy risklar, manfaatlar to‘qnashuvi, ijtimoiy muomala tarixi (reputatsiyasi) bo‘yicha axborot tekshiruvlarini joriy etish;

Har bir lavozimga tayinlashdan oldin nomzodlar uchun etik komissiya xulosasi olish tizimini yo‘lga qo‘yish;

“Alohida ehtimolli lavozimlar” ro‘yxatini ishlab chiqib, ularni bosqichma-bosqich rotatsiya tizimi orqali nazorat qilish.

Zero, amerikalik davlat boshqaruvi nazariyotchisi James Q. Wilson takidlaganidek:
“Davlat amaldorlarining maoshini oshirish bilan birga, ulardan yuqori darajadagi professionallik va javobgarlikni talab qilish korrupsiyaga qarshi kurashda samarali yondashuvdir”[1].

Davlat xizmatchilarining kasbiy salohiyati, axloqiy pozitsiyasi va iqtisodiy barqarorligi — davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurashning eng muhim ustunlaridan biridir. Shuning uchun ularning bilim va koʻnikmalarini muntazam rivojlantirish, halollik va javobgarlik tamoyillarini mustahkamlovchi muhit yaratish dolzarb ahamiyatga ega.

Antikorrupsiya yoʻnalishida muntazam treninglar va malaka oshirish dasturlarining joriy etilishi — korrupsiyaviy xavflarni tanib olish, etik muammolarni hal qilish hamda xizmat burchini halol ado etish qobiliyatini shakllantiradi. Shu bilan birga, davlat xizmatchilarining mehnat sharoitlarini yaxshilash, munosib ish haqi va ijtimoiy kafolatlar bilan taʼminlash — ularni korrupsion xatti-harakatlarga kirishishdan iqtisodiy jihatdan tiyib turuvchi kuchli omil boʻlib xizmat qiladi.

Kadrlar siyosatida halollik, professionallik va ochiq tanlov asosidagi yondashuvlar davlat xizmatining sifatini oshirib, nepotizm va kronizmning oldini oladi. Bularning barchasi davlat boshqaruvida adolat, javobgarlik va ishonch muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasida inson kapitalini — ayniqsa, davlat xizmatchilarining salohiyatini oshirishga doimiy eʼtibor qaratish zarur va bu barqaror ijtimoiy taraqqiyotning muhim kafolatlaridan biridir.

Baholash va monitoring tizimini kuchaytirish. Antikorrupsiya strategiyalari va dasturlarining bajarilishini mustaqil va doimiy baholab borish — samaradorlik koʻrsatkichlarini ishlab chiqish, muntazam monitoring oʻtkazish, natijalar asosida strategiyalarni korrektiv qilish tizimini yaratish.

---

[1] Wilson, J. Q. (1989). *Bureaucracy: What Government Agencies Do and Why They Do It*. New York: Basic Books, p. 380.

Xalqaro reyting va indekslarda (Transparency International, WJP Rule of Law, Risk Index va boshqalar) O‘zbekiston o‘rnini yaxshilashga yo‘naltirilgan aniq ko‘rsatkichlar va rejalashtirish tizimini ishlab chiqish — xalqaro baholash mezonlari asosida milliy dasturlarni ishlab chiqish, maqsadli ko‘rsatkichlar belgilash va ularni bajarilishini monitoring qilish tizimini yaratish. Bu borada ya’ni baholash va monitoring tizimini kuchaytirish bo‘yicha aniq amaliy choralar haqida gapirsak:

Har bir antikorrupsiya dasturi uchun aniq KPI (asosiy ko‘rsatkichlar), masalan: shikoyatlarning ko‘rib chiqilish muddati, fuqarolar ishonch darajasi, korrupsiya bilan bog‘liq javobgarlikka tortilgan amaldorlar soni kabi mezonlar belgilanadi;

Har yili bu indikatorlar bo‘yicha natijalar parlament, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilikka ochiq e’lon qilinadi;

Korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini nodavlat va xalqaro tashkilotlar ishtirokida baholovchi komissiyalar tuzish;

Har yili korrupsiya strategiyasining bajarilishi bo‘yicha mustaqil audit va jamoatchilik eshituvi o‘tkazish;

Transparency International’ning Corruption Perceptions Index, World Justice Project’ning Rule of Law Index, Basel Institute’ning AML Risk Index mezonlarini chuqur tahlil qilish;

Har bir indeks bo‘yicha O‘zbekiston pozitsiyasini yaxshilash uchun milliy maqsadli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish (masalan, 5 yil ichida 20 pog‘ona yuqorilash);

Yil yakunida monitoring asosida aniqlangan zaifliklar va muammolarni hisobga olib, antikorrupsiya strategiyasining yangi versiyasini ishlab chiqish;

Monitoring natijalari asosida “yashil zonalar” (yaxshi ishlayotgan sohalar) va “qizil zonalar” (korrupsiyaga eng ko‘p moyil sohalar) bo‘yicha tahliliy xaritalar tuzish kabilardan iborat.

Darhaqiqat, Korrupsiyani kamaytirish uchun siyosiy irodaning o‘zi yetarli emas — natijaviylikni baholovchi aniq ko‘rsatkichlar, doimiy monitoring va

hisobdorlik tizimi zarur. Shunday mexanizmlar boʻlmas ekan, korrupsiyaga qarshi kurash rasmiy bayonot darajasidan nariga oʻtmaydi[1].

Bu yoʻnalishlarning kompleks amalga oshirilishi Oʻzbekistonda korrupsiyaga qarshi samarali kurashish tizimini yaratish va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Oʻzbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirishning istiqbollarini ham tahlil qilish joiz hisoblanadi.

Q. Abdurasulova ham bugungi kunda yuridik fanlar boʻyicha tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida korrupsiyaning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa jihatlariga bagʻishlangan binar tadqiqotlar olib borilishi maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi[2].

Fikrimizcha, yuqoridagi yoʻnalishlarning izchil amalga oshirilishi natijasida Oʻzbekiston davlat boshqaruvida korrupsiyaga barham berishga qaratilgan kuchli, samarali va zamonaviy tizimni shakllantirish sari dadil qadamlar tashlamoqda. Bu esa mamlakat taraqqiyoti va fuqarolar farovonligining muhim kafolatidir.

3.2. Davlat boshqaruvida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish

Bugungi globallashuv va axborot asrida davlat boshqaruvining samaradorligi, shaffofligi va hisobdorligi jamiyat ishonchini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Shu jihatdan qaralganda, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi davlat boshqaruvi barqarorligini mustahkamlovchi hal qiluvchi omil sifatida namoyon boʻlmoqda. Ayniqsa, korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, ularni baholash va oqilona boshqarish orqali davlat organlari faoliyatidagi zaif jihatlarni oldindan aniqlash va bartaraf etish imkoniyati yuzaga keladi. Shu sababli ushbu sohadagi huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish dolzarb ehtiyojga aylangan.

---

[1] Rose-Ackerman, S. (1999). *Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform*. Cambridge University Press, p. 275

[2] Q.R. Abdurasulova. Yuridik fanlar boʻyicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari va ularni takomillashtirish // Fan va ta’lim zamonaviy bosqichda: islohotlar va strategik yoʻnalishlar: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2021 yil 29 sentyabr). – T.: Oʻzbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021 – 93 bet.

Birinchidan, mavjud normativ-huquqiy baza ayrim hollarda tizimli yondashuvdan yiroq boʻlib, korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va baholash boʻyicha aniq mezonlar va metodikalar yetarlicha belgilab berilmagan. Masalan, har bir davlat organi oʻz xohishiga koʻra ichki audit yoki etik nazorat orqali xavflarni aniqlashi mumkin, biroq bu jarayonlar yagona yondashuv asosida emas. Natijada, korrupsiyaning oldini olish oʻrniga, u faqatgina sodir boʻlgach aniqlanmoqda.

Ikkinchidan, huquqiy asoslarning noaniqligi va fragmentarligi natijasida davlat idoralari oʻrtasida korrupsiyaviy xavflarni baholashda uzviylik, uzluksizlik va yagonalik ta’minlanmayapti. Bu esa boshqaruvda noaniqlik va qaror qabul qilishda sub’ektiv yondashuvlarga olib kelmoqda.

Uchinchidan, korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va boshqarishda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va mustaqil ekspertlar ishtirokini qonuniy asosda kuchaytirish zarur. Bu davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini yoʻlga qoʻyish orqali korrupsiyaga qarshi immunitetni mustahkamlaydi.

Toʻrtinchidan, bugungi islohotlar sharoitida korrupsiyani faqat jazolovchi mexanizmlar bilan emas, balki profilaktik huquqiy mexanizmlar bilan jilovlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va baholashning aniq huquqiy asoslari shakllansa, davlat xizmatchilarining oʻzini tutish standartlari, qaror qabul qilishda halollik va ochiqlik printsiplari ustuvorlik kasb etadi.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash boʻyicha 20 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi (Qarang 11-ilova). Lekin soʻngi yillardagi statistikaga yuzlansak korrupsiya yana ham jadal suratlarda tomir otganini guvohi boʻlishimiz mumkin. Ya’ni, soʻngi yillarda Oʻzbekistonda korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga yetkazilgan moddiy zarar miqdori oshib bordi (Qarang 9-ilova). Bunga mos ravishda esa korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etgan shaxslar dinamikasi ham hali ortga qaytganicha yoʻq (Qarang 10-ilova). Toʻgʻri buni bugungi kunda korrupsiyaga oid jinoyatlarni fosh etishda qator yutuqlarga erishayotganimiz bilan izohlashimiz

ham mumkin. Lekin, bu statistikani pasaytirish bizning vazifa va maqsadimi hisoblanadi. Yuqoridagi 20 ta normativ-huquqiy hujjatdan ayrimlari aynan davlat boshqaruvida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va ularni baholash kabi masalalarni tartibga solishi bilan ham ahamiyatli.

Hozirgi kunda davlat boshqaruvida korrupsiyani aniqlash, bartaraf etish va baholash boʻyicha 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida"gi OʻRQ-419-son qonuni[1] muhim huquqiy asos boʻlib xizmat qilmoqda. Biroq, bu qonun boshqa qonun hujjatlari bilan tizimli uygʻunlashgan boʻlishi va aniq ijro mexanizmlarini oʻz ichiga olishi lozim. Shu bilan birga, sohadagi yangi xavflar va tendensiyalarni inobatga olgan holda, normativ-huquqiy bazaning doimiy ravishda yangilanib borishi muhim.

Oʻzbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash boʻyicha muhim institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq korrupsiyaviy xavflarni tizimli aniqlash, baholash va ularni huquqiy asosda boshqarish borasida mavjud boʻlgan qonunchilik tarqoq, amaliyotdan ajralgan va yetarlicha aniqlik kasb etmagan. Bu esa, korrupsiyani chuqur ildizlari bilan bartaraf etishga toʻliq imkon bermayapti. Shuning uchun ushbu sohadagi huquqiy asoslarni chuqur takomillashtirish zarurati dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Yuqoridagilani xisobga olib quyida xorij mamlakatlari tajribalariga asoslanib Davlat boshqaruvida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish doir takliflar berish va ularni tahlil qilish joiz deb topdik.

Birinchi taklif. Davlat boshqaruvida shaffoflikni yanada oshirish maqsadida "Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida"gi qonunni takomillashtirish zarur. Ushbu qonunni yangilash jarayonida, eng avvalo, Prezident, Vazirlar Mahkamasi hamda mahalliy ijro hokimiyati organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi aniq vakolatlarini huquqiy jihatdan belgilab berish muhimdir.

[1] Oʻzbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida"gi OʻRQ-419-son qonuni. https://lex.uz/mact/-3088008

Shuningdek, bevosita korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini amalga oshiruvchi muhim idoralar roʻyxatiga Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank, Hisob palatasi, Soliq qoʻmitasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Monopoliyaga qarshi kurashish agentligi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligini kiritish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi taklif. Oʻzbekistonda davlat xizmatchilari tomonidan daromad va mol-mulkni deklaratsiya qilish tartibini belgilovchi alohida “Davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulklarini deklaratsiya qilish toʻgʻrisida”gi qonunni qabul qilish dolzarbdir. Ushbu mexanizm korrupsiyaviy xavflarni aniqlashda samarali huquqiy va tashkiliy asos boʻlib xizmat qiladi.

Deklaratsiya tizimi orqali davlat xizmatchilarining moliyaviy ahvoli ustidan ichki va tashqi nazorat amalga oshiriladi. Bu borada AQSHda “Federal Etika qonuni”, Braziliyada “Davlat xizmatidagi xodimlarning daromadlarini deklaratsiya qilish toʻgʻrisida”gi qonun, Fransiyada “Davlat lavozimlaridagi shaxslarning manfaatlar deklaratsiyasi toʻgʻrisida”gi qonun, Ukrainada mol-mulk va daromadlarni elektron deklaratsiya qilish tartibi va Gruziyada “Jamoat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulki toʻgʻrisida deklaratsiya berish toʻgʻrisida”gi qonunlar amaliyotda muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda.

Uchinchi taklif. Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2021-yil 8-sentabrdagi buyrugʻi bilan tasdiqlangan “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati toʻgʻrisida”gi naʼmunaviy nizom (roʻyxat raqami 3319)ning 4-bandiga koʻra, Ichki nazorat tuzilmalari tashkilot rahbariga boʻysunishi belgilangan. Ushbu bandni qayta koʻrib chiqish va ularning faoliyatini bevosita Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi yoki ushbu agentlik tarkibidagi tegishli boʻlim yoki boshqarmaga boʻysunishini huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, Shvetsiya tajribasida ichki komplayens nazorati ombudsman orqali amalga oshiriladi, nazorat esa mustaqil tuzilmalar yoki parlament nazorati orqali olib boriladi. Nizomga koʻra, ichki nazorat tuzilmalari choraklik va yillik hisobotlarni tashkilot rahbariyatiga taqdim etadi.

Taklif etilayotgan oʻzgartirishlarga koʻra, bu hisobotlar bevosita Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ham taqdim etilishi va agentlik tomonidan tahlil qilinishi belgilanishi lozim. Bu borada Germaniya va AQSH amaliyoti, shuningdek Fransiyadagi Antikorrupsiya agentligiga bevosita hisobdorlik tizimi oʻrnak boʻla oladi.

Toʻrtinchi taklif. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ–5177-sonli qarorining 4-bandida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari rahbarlari ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinishi va ularni lavozimidan ozod qilish Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi belgilangan.

Xalqaro ilgʻor tajribaga asoslanib, bu tartibni kuchaytirish va ichki nazorat tuzilmasi rahbarlarini ishga tayinlash hamda lavozimidan ozod qilishni toʻliq Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining vakolatiga oʻtkazish taklif etiladi. Bu yondashuv professional mustaqillikni taʼminlaydi va komplayens tizimining haqiqiy faoliyat yuritishini kafolatlaydi.

Beshinchi taklif. “Korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish toʻgʻrisida”gi alohida qonunni ishlab chiqish va qabul qilish zarur. Hozirda korrupsiyaviy xavf tushunchasi Oʻzbekiston qonunchiligida parchalanma va umumiy tarzda ifodalangan boʻlib, uning aniq huquqiy mezonlari mavjud emas. Ushbu qonunda korrupsiyaviy xavfning huquqiy taʼrifi, ularning asosiy turlari (masalan, operatsion, strategik, institutsional va boshqalar), ularni aniqlash uslublari va baholash mezonlari aniq koʻrsatilishi lozim.

Har bir davlat idorasi va tashkilotida maxsus risklarni boshqarish boʻlimi tashkil etilishi va ularning faoliyati yillik hisobotlarda aks ettirilishi zarur. Bu esa korrupsiyaviy risklarni aniqlash va bartaraf etishni qonuniy majburiyat sifatida mustahkamlaydi. Misol uchun, Fransiyada 2016-yilda qabul qilingan Sapin II qonuni, Italiyadagi “PTPCT” – korrupsiyani oldini olish va shaffoflik boʻyicha uch yillik reja, Kanada va Norvegiyada amal qilayotgan “anti-risk compliance” qonunlari bu borada amaliy asos boʻla oladi. Ular davlat boshqaruvida

korrupsiyaviy xavflarni huquqiy majburiyat sifatida tartibga solishni yo‘lga qo‘ygan.

Fikrimizcha, davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish mexanizmlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish zamonaviy davlatni shakllantirish va boshqaruv samaradorligini oshirishning ajralmas sharti hisoblanadi.

Korrupsiyani faqat jazolash orqali emas, balki uni yuzaga keltiruvchi xavflarni aniqlash va ularning oldini olish orqali bartaraf etish konsepsiyasi hozirgi global antikorrupsiya siyosatining asosiy yo‘nalishiga aylangan. Bunday yondashuv korrupsiyaga qarshi kurashning reaktiv emas, balki proaktiv modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar va raqamli tahlil vositalari yordamida korrupsiyaviy xavflarni oldindan aniqlash, ularning darajasini baholash va samarali boshqaruv choralari ko‘rish orqali boshqaruvdagi shaffoflik va ishonchni mustahkamlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Kitoblar va turkum nashrlar:

1.1 Sh.M. Mirziyoyev. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. – Toshkent: “Oʻzbekiston” nashriyoti, 2021. 464-bet.

1.2 Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas’ul muharrir: A.Sh. Bekmurodov: – Toshkent: “Akademiya”, 2022. 290-291-b.

1.3 Xojiyev, E.T. (2006). Ma’muriy huquq: Oliy oʻquv yurtlari uchun darslik. – T.: Adolat nashriyoti, 2006. 7-b.

1.4 Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административнойе право: Учебник для вузов. – М.: Норма, 2004. 19-б.

1.5 Атаманчук Г.В. Теория государственного управления: Курс лекций. М., 1997. 29-30-б.лар

1.6 Хрестоматия государства и права зарубежных стран. Древност и Среднеевека / сост. В. А. Томсинов. -М.: Зерцало, 1999; 2004. 56-б

1.7 Попов В. И. Противодействие организованной преступности, коррупции, терроризму в России и за рубежом. – М., 2008. – С. 459-460.

1.8 Klitgaard, R. (2025). Controlling Corruption., 2025. 112-b.

1.9 Rose-Ackerman, S. (2006). International Handbook on the Economics of Corruption. Edward Elgar Publishing., 2006.

1.10 Rose-Ackerman, S. (1999). *Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform*. Cambridge University Press, p. 275

1.11 Brigitte Zimmerman. Transparency, Sanctioning Capacity, and Corruption Displacement: Multi-Method Evidence from Local Government in Malawi//https://escholarship.org/content/qt0q7490dw/qt0q7490dw_noSplash_fa8dfb5f2ac45b81d761ede4a2adc372.pdf. 69-b.

1.12 Quah, J. S. T. (2011). Curbing Corruption in Asian Countries: An Impossible Dream? Curbing Corruption in Asian Countries: An Impossible Dream?, (978-0-85724-819-0), i. https://doi.org/10.1108/s0732-1317(2011)0000020023

1.13 Nicholls QC, Colin et al. (2011). Corruption and Misuse of Public Office. OUP Oxford. ISBN 978-0-19-957727-9.

1.14 Kubbe, Ina; Varraich, Aiysha (2019). Corruption and Informal Practices in the Middle East and North Africa. Routledge. 94-b.

1.15 Zhang, Yahong; Lavena, Cecilia (2015). Government Anti-Corruption Strategies:A Cross-Cultural Perspective. CRC Press. ISBN 978-1-4987-1202. 36-b.

1.16 Yamaguchi Atsushi et al. (2001–2003). *Responses to Corruption: Comprehensive Study on the Crime of Corruption*. Japan Society for the Promotion of Science (JSPS), KAKENHI Grant No. 13420008. The University of Tokio. 78-b.

1.17 Nathan, Andrew J. (2018-10-16). “Political Corruption and Scandals in Japan”. Foreign Affairs. Vol. 97, no. 6. ISSN 0015-7120. 85-b.

1.18 Woellner, R. A., Voorhees, J., & Bell, C. L. (2020). International environmental risk management: A systems approach. CRC Press.

1.19 Field, A. (2017). ISO 37001: An introduction to anti-bribery management systems. IT Governance Ltd.

1.20 Mungiu-Pippidi, A. (2015). *A Quest for Good Governance*. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9781316286937

1.21 Johnston, M. (2005). Syndromes of Corruption: Wealth, Power, and Democracy. Cambridge University Press.

1.22 Hough, D. (2017). Analysing Corruption: An Introduction. Agenda Publishing.

1.23 Wilson, J. Q. (1989). *Bureaucracy: What Government Agencies Do and Why They Do It*. New York: Basic Books, p. 380.

II. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferati:

2.1 Абдуғаниев, М.А. Давлат бошқарув органларида коррупсиявий хавф-хатарларни аниқлаш ва олдини олишнинг ҳуқуқий масалалари. Диссертатсия. Toshkent: ProAcademy, 2021. 45-47-b.

2.2 Primov, F.A. Davlat Boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurashishning ma'muriy-huquqiy jihatlarini takomillashtirish. Dissertatsiya Онлайн-сообщество юристов. Justy.uz, 2023. 32-b.

2.3 Arias Ortiz, E. S. (2017). Análisis de la norma ISO 37001 y su relación con las ISO utilizadas en la gestión de riesgos (Bachelor's thesis, Univesidad del Azuay). 147-b.

III. Jurnaldagi maqolalarga havolalar

3.1 Saidov, A. 2022. Oʻzbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati: xalqaro standartlar va milliy tizim. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 2, 1 (mart 2022), 3–8. DOI: https://doi.org/10.47689/uacd-2181- 3345--vol2-iss1-pp3-8

3.2 Ma'murova, N. . (2023). Corruption is the main problem of developed countries. Modern Science and Research, 2(12), 217–225.

3.3 Muhammadqulov, B. (2025). Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimida xorijiy davlatlar tajribasi tajibasi. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(11), 64-67.

3.4 Korrupsiya: uning tarixiy ildizlari, korrupsiyaga qarshi kurash usullari. (2025). https://buxdu.uz/ru/112-sobitiya/5433/5433-korrupsiya-uning-tarixiy-ildizlari-korrupsiyaga-qarshi-kurash-usullari/

3.5 Жамсатов Алихан Кайыргелдинович (2016). Коррупция как политическая проблема в современном мире. European journal of law and political sciences, (4), 45-48.

3.6 Isomiddinovich, A. B. (2024). Korrupsiya va uning manbalari. tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g 'oyalar, 1(1), 337-340.

3.7 Karimov, K. R. (2024). Analysis of Institutional Frameworks of Risk Assessment and Mitigation in Project Management. Oriental Renaissance, 4(3), 73-80-b.

3.1 Madumarov Talantbek Tolibjonovich. (2024). Davlat boshqaruvi mazmuni va oʻziga xos xususiyatlari. pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar | Journal of pedagogy, psychology and social research, 3(6), 100–105.

3.2 Назаров, Ш. (2025). Научные подходы к коррупционным рискам. Общество и инноватсии, 6(1), 302-308.

3.3 Nurmatova, N. U. (2024). Korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standartlari va oʻzbekiston qonunchiligi. *Modern problems in education and their scientific solutions*, *1*(2), 322-329.

3.4 Hayitov, Joʻrabek Muhammad oʻgʻli (2021). Korrupsiyaga qarshi samarali kurash chora-tadbirlari mamlakat taraqqiyoti omili sifatida. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (11), 1224-1232.

3.5 Iskandarov, B. (2025). Oʻzbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari. Modern Science and Research, 4(3), 1326–1331.

3.6 Василев Сергей Александрович (2021). Реформаторское движение в китае в эпоху династии северной сун. Вопросы теоретической экономики, (4), 121-137

3.7 Порезанова Е.В. (2015). Коррупционные риски в системе государственных закупок в России. Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия Экономика. Управление. Право, 15 (4), 363-367. DOI: 10.18500/1994-2540-2015-15-4-363-367

3.8 Ананиан, Л. Л. (1995). 95. 02. 030. Ответственност за должностные преступления в зарубежных странах /решетников Ф. М. , Игнатова М. А. , менших А. А. , Апарова Т. В. ; отв. Ред. Решетников Ф. М. — М. : юрид. Лит. , 1994. — 77 с. Социалные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 4, Государство и право: Реферативный журнал, (2), 106-110.

3.9 Хачиров, Т. В. Управление коррупционными рисками в организатсии / Т. В. Хачиров // Вестник Евразийской науки. — 2023. — Т 15.

— № s6. — URL: https://esj.today/PDF/45FAVN623.pdf (дата обращения: 05.04.2025).

3.10 Maqbool, A. (2025, January 6). Introducing Public Administration At 10+2 Level: A Step Towards Empowering Future Leaders. Qaraldi: April 10, 2025, from Kashmir Reader website: https://kashmirreader.com/2025/01/07/introducing-public-administration-at-102-level-a-step-towards-empowering-future-leaders/

3.11 Ramos, D. M. (2024). Understanding Governance and Political Science Concepts. Qaraldi: April 10, 2025, from Quizlet website: https://quizlet.com/study-guides/understanding-governance-and-political-science-concepts-33547549-62f3-43a0-938d-5b7654655264

3.12 Fazekas, M., Tóth, I. J., & King, L. P. (2016). An Objective Corruption Risk Index Using Public Procurement Data. European Journal on Criminal Policy and Research, 22(3), 369–397. https://doi.org/10.1007/s10610-016-9308-z

3.13 Monbiot, George. “If you think the UK isn’t corrupt, you haven’t looked hard enough” (en). *The Guardian*

3.14 Binham, Caroline. “UK drops out of top 10 in global anti-corruption rankings”. Financial Times

3.15 Millard, Rachel. “UK takes one step down in global corruption rankings” (en-GB). The Telegraph

3.16 Bakırtas, İ., & Önder, H. (2018). *The Impact of Public Administration Capability on Corruption: A Cross-Country Analysis*. International Journal of Academic Research, 10(1), 56–69

3.17 Oyamada, E. (2015), “Anti-corruption measures the Japanese way: prevention matters”, Asian Education and Development Studies, Vol. 4 No. 1, 24-50-betlar. DOI:10.1108/AEDS-10-2014-0047

3.18 Izumi, Junichi. “Contracting Procedures of the Japanese Government” (PDF). 国連アジア極東犯罪防止研修所(UNAFEI). unafei.or.jp. 132-b.

3.19 Daye, Ghassan El (2023-07-04). “United Arab Emirates country risk report”. تقرير المخاطر في دولة الإمارات العربية المتحدة. GAN Integrity.

3.20 Chong, Elena. “Ex-police officer charged with warning dance clubs on raids”

3.21 Ho, Olivia. “Singapore ranked fourth least corrupt country in the world, cleanest in Asia”. Straits Times.

3.22 Lizarzaburu Bolaños, E. R., Barriga, G., Burneo, K. & Noriega, E. (2018). Gestión integral de riesgos y antisoborno: un enfoque operacional desde la perspectiva ISO 31000 e ISO 37001. Universidad & Empresa, 21(36), 79-118. https://doi.org/10.12804/revistas.urosario.edu.co/empresa/a.6089

3.23 Veselovská, L., Závadský, J., & Závadská, Z. (2020). Mitigating bribery risks to strengthen the corporate social responsibility in accordance with the ISO 37001. Corporate social responsibility and environmental management, 27(4), 1972-1988. https://doi.org/10.1002/csr.1909

3.24 Pechenkin, I. V. (2021). Peculiarities of EU countries normative-legal provision on regulation of the sphere of appeal of service activity of public authorities: experience for Ukraine. Восточно-европейский научный журнал, (4-5), 20-26.

3.25 Tsopa, V., Cheberiachko, S., Cheberiachko, L., Nesterova, O., & Pustovoi, D. (2025, March). Increasing the efficiency of integrated enterprise management systems. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 1481(1), 012013.

3.26 Kaufmann, D. (2010). Rethinking Governance Indicators: Approaches, Progress, and Challenges. World Bank Institute.

IV. Simpozium va konfrensiya ishlariga havolalar:

4.1 Q.R. Abdurasulova. Yuridik fanlar boʻyicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari va ularni takomillashtirish // Fan va ta’lim zamonaviy bosqichda: islohotlar va strategik yoʻnalishlar: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2021 yil 29 sentyabr). – T.: Oʻzbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi.

4.2 X.Mirzaaxmedov. (2023). Korrupsiyaning shakllari va darajalari. “XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta’lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar” Nomli Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi, 1(10), 223–224.

4.3 Abdumajitova, S. (2025). Korrupsiyaga qarshi kurash–bugungi kunning dolzarb muammosi. education and research in the era of digital transformation, 1(2), 3297-3304.

4.4 Tsopa, V., Cheberiachko, S., Cheberiachko, L., Nesterova, O., & Pustovoi, D. (2025, March). Increasing the efficiency of integrated enterprise management systems. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 1481(1), 012013. 78-b.

V. Internetdagi (elektron) manbalarga havolalar:

5.1 http://www.lex.uz
5.2 https://president.uz/oz
5.3 https://gov.uz
5.4 https://www.iso.org
5.5 https://library-tsul.uz
5.6 http://www.uza.uz
5.7 https://t.me/uzbprokuratura
5.8 https://stat.uz
5.9 https://www.uzdaily.uz
5.10 https://kashmirreader.com
5.11 https://mudarrisziyo.uz
5.12 https://universalpublishings.com
5.13 https://buxdu.uz
5.14 https://www.transparency.org
5.15 https://stat.uz
5.16 https://aca.uz
5.17 https://worldjusticeproject.org
5.18 https://www.rti-rating.org

5.19 https://risk-indexes.com/global-corruption-index

5.20 https://worldpopulationreview.com/country-rankings/most-corrupt-countries

5.21 https://esj

5.22 https://kun.uz

5.23 https://www.gazeta.uz

5.24 https://daryo.uz/

5.25 https://oz.sputniknews.uz/

5.26 https://inlibrary.uz

5.27 https://iiau.uz/oz/news/2125

5.28 https://web.archive.org/

5.29 https://uscode.house.gov

5.30 https://ti-health

5.31 https://www.govinfo.gov/

5.32 https://www.justice.gov/sites/

5.33 https://www.theguardian.com/

5.34 https://www.telegraph.co.uk/

5.35 https://www.ft.com/

5.36 https://www.gesetze-im-internet.de

5.37 https://www.retsinformation.dk

5.38 https://medst.dk

5.39 https://laws.e-gov.go.jp

5.40 https://uaelegislation.gov.ae

5.41 https://www.fahr.gov.ae

ILOVALAR

1-Ilova.

Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi sub’ektlar tizim.

Manba: Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas’ul muharrir: A.Sh. Bekmurodov: – Toshkent: “Akademiya”, 2022. 17-bet.

Maxsus vakolatli organlar	Umumiy vakolatli davlat organlari	Nodavlat sub’ektlar
Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi; Bosh prokuratura; Davlat xavfsizlik xizmati; Ichki ishlar vazirligi; Adliya vazirligi; Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.	Prezident; Parlament; Hukumat; Vazirlik va idoralar; Mahalliy davlat hokimiyati organlari.	Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari; Nodavlat notijorat tashkilotlari; Fuqarolar.

2-Ilova.

Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi tomonidan 2024-yil yakuni bo‘yicha taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra Davlat xaridlariga doir qonun buzilishlari.
Manba: https://anticorruption.uz/oz/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-tizimini-tahlil-va-monitoring-qilish-boshqarmasi-togrisida



3-Ilova.

“Transparency International” agentligining korrupsiya reytingi — 2024.
Manba: https://www.transparency.org/en/cpi/2024



4-Ilova.

“WJP Rule of Law Index”ning korrupsiya bo‘yicha reytingida O‘zbekistonning o‘rni.
Manba: https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global/2024/Uzbekistan/Absence%20of%20Corruption/ranking



5-Ilova.

Axborot olish huquqining global reytingi — 2024.
Manba: https://www.rti-rating.org/



6-Ilova.

"World population review"ning dunyo davlatlarida korrupsiyani idrok etish reytingi (0 – 100 ball) — 2024.
Manba: https://worldpopulationreview.com/country-rankings/most-corrupt-countries



7-Ilova.

Global korrupsiya reytingi — 2023.

Manba: https://risk-indexes.com/global-corruption-index/

8-Ilova.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro korrupsiya reytinglarida so‘ngi yillardagi ko‘rsatgichlari.

Manbalar: https://www.transparency.org, https://worldjusticeproject.org, https://worldpopulationreview.com



9-Ilova.

So‘ngi yillarda O‘zbekistonda korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga yetkazilgan moddiy zarar miqdori.

Manbalar: https://anticorruption.uz/, https://kun.uz, https://www.gazeta.uz, https://daryo.uz/, https://oz.sputniknews.uz/



10-Ilova.

O‘zbekistonda korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etgan shaxslar dinamikasi.

Manbalar: https://kun.uz/14140763, https://uza.uz



11-Ilova.

O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar.

Manba: https://gov.uz/oz/uzbmb/pages/corr-doc

T/r	Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar
1	O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017-yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 419-son Qonuni
2	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6013-son farmoni
3	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2021-yildagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-sonli farmoni
4	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.05.2019-yildagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5729-son farmoni
5	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4761-sonli qarori
6	Korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida NIZOM
7	Bilim va malakalarni baholash agentligi korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasining amalga oshirgan ishlari to'g'risidagi HISOBOTI
8	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.06.2021-yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-sonli qarori
9	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020-yildagi "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 829-sonli qarori
10	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 24.02.2021-yildagi "Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 3287-sonli buyrug'i
11	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati

12	Bilim va malakalarni baholash agentligida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha NIZOM
13	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.01.2022-yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 81-sonli qarori
14	Bilim va malakalarni baholash agentligiga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish REGLAMENTI
15	Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlari odob-axloqining QOIDALARI
16	Bilim va malakalarni baholash agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi
17	Bilim va malakalarni baholash agentligining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi yillik HISOBOT
18	O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi 931-son qonun
19	O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi 210-son qarori
20	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining "Mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnoma, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalar va manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reyestrining namunaviy shakllarini tasdiqlash haqida"gi buyrug'i

ZOKIROV SHOXRXUBEK ZOHIDJON O‘G‘LI
YOQUBOV SHERZOD NABI O‘G‘LI
AXMEDOVA KAMOLA ZOIRJON QIZI

DAVLAT BOSHQARUVIDA KORRUPSIYAVIY XAVFLARNI ANIQLASH, BAHOLASH VA BOSHQARISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

O‘quv-uslubiy qo‘llanma

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Sarbon universiteti
Toshkent-2026

Bosishga ruxsat etildi 05.03.2026-y. Bichimi 60×84/16. “Cambia” garniturasi, 5,4 nashriyot hisob tabag‘i, 5,4 shartli bosma taboq. Bahosi shartnoma asosida.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Sarbon universiteti
100111, Toshkent, Olmazor tumani, Sagban ko‘chasi, 290-uy.